



RAQOBAT MAYDONING MARDLARI

4-5-sahifa ▶▶

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2022-yil 2-dekabr, №48 (3007)

YANGI O'ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ

VATANPARVAR

www.mv-vatanparvar.uz IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI



“MAKTABGA QO'LDAN BORGANMAN”

7-sahifa ▶▶



“ASKARLAR — O'G'LIM, UKAM KABI AZIZ!”

17-sahifa ▶▶



YOSHLARIMIZ DUNYO MIQYOSIDA BIRINCHI!

21-sahifa ▶▶

@ vatanparvar-bt@uamail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

QO'RG'ON

11

“SARIDALA”DA
MAHORAT
SAYQALLANADI

12

OSMONDA
XATO QILIB
BO'LMAYDI

13

HARBIY
SOHAGA
YO'NALTIRADI

Tahririyat
haqida
ma'lumot



Xalqaro konferensiya



MUNOZARA VA FIKR ALMASHUVLAR



Bahrom ABDURAHIMOV



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) ko'magida "Xavfsizlikni ta'minlash va zamonaviy rivojlanish kontekstida regional hamkorlik" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash va zamonaviy taraqqiyotning dolzarb masalalari bo'yicha fikr almashish va faol muhokama maydonini yaratish, birgalikda ajralmas xavfsizlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlarni izlash hamda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadlarida tashkil etilgan konferensiyada YXHT, NATO, ShHT, Xalqaro Qizil xoj, Rossiya, AQSh, Ozarbayjon, Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Xitoy, Italiya, Turkiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston oliy harbiy ta'lim muassasalari ekspert vakillari ishtirok etdi.

Konferensiya mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistonda loyihalarini muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaruvchisi Xans Ulrix Inning kirish so'zi bilan boshlandi. General-mayor Sh. Xalmuxamedov nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot tuzilmalari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan harbiy-diplomatik korpus vakillari hamda respublikamizning tegishli vazirlik va idoralari, oliy ta'lim muassasalarining vakillariga anjuman ishida muvaffaqiyat tilar ekan, keyingi

yillarda xalqaro tartib transformatsiya bo'lish jarayonlarining tezkor rivojlanishi va dunyoning ayrim mintaqalaridagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida xavfsizlikka bo'lgan an'anaviy hamda yangi tahdid va chaqiriqlar rivojlanayotgani, ayniqsa, kibermakonda xavf-xatarlar ko'lamining ortib borayotganiga urg'u berdi. Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida xavfsizlik muammolarining aksariyatini o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirmasdan, ularni muvofiqlashtirmasdan turib samarali hal etish imkoniyati yo'qligi, Markaziy Osiyo va unga yaqin bo'lgan mintaqalardagi harbiy-siyosiy vaziyatning holati, rivojlanishining yangi tendensiyalari va istiqbollarni baholash ustuvor vazifa ekanligi hamda xavfsizlikni ta'minlashda harbiy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyada erishilgan yutuqlar muhim omil bo'lishini alohida qayd etdi.

Shundan keyin belgilangan dasturga ko'ra, "Mintaqaviy yaqinlashuv – Markaziy Osiyo mamlakatlari rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlashning muhim

sharti", "Zamonaviy xalqaro siyosiy tizimga o'tish sharoitida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy tartib", "Mintaqaviy xavfsizlikda ayollarning roli", "BMTning O'zbekistondagi (Markaziy Osiyo) kontrterroristik boshqaruv faoliyati – reabilitatsiya va reintegratsiya dasturi kontekstida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda mustahkam tinchlikni o'rnatishdagi roli" kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Kunning ikkinchi yarmida konferensiya o'z ishini sho'balarga bo'lingan holda davom ettirdi. Ishtirokchilar global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda mojarolarni bartaraf etishda xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatlari va o'ziga xosligi bo'yicha o'z mulohazalarini bildirib, qizg'in munozaraga kirishdilar. Anjuman doirasidagi ilmiy munozaralar mobaynida harbiy kadrlarni tayyorlash, harbiy ilm-fan va texnologiyalar sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish masalalari borasida ham fikr almashildi.

Konferensiya so'ngida to'plangan ijobiy tajriba, akademik hamda ekspert-tahlil doira vakillarining munozara va fikr almashuvi natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan xulosa hamda tavsiyalar mintaqaviy xavfsizlik va birgalikdagi taraqqiyotni ta'minlash masalalari bo'yicha har tomonlama konstruktiv muzokarani, amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashga imkon yaratishi e'tirof etildi.

Furqat ERGASHEV

8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

FAXR-U G'URUR TIMSOLI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'lamli keng, shiddati baland, natijadorligi yuksak demokratik o'zgarishlarni ko'rib, bularning barchasi xalqimiz manfaatlarini izchillik bilan ta'minlash, Vatanimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish yo'lida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan ishlarning hayotdagi samarasi ekaniga amin bo'lamiz.



Bunday muvaffaqiyatlarning negizida shu kunlarda xalqimiz o'ttiz yillik shonli bayramini nishonlashga tayyorgarlik ko'rayotgan Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan eng yuksak g'oyalar, demokratik tamoyillar, ezgu maqsadlar mujassam. Har tomonlama pishiq-puxta o'ylangan va umume'tirof etilgan xalqaro demokratik standartlar talablariga to'liq javob beradigan Asosiy qonunimizning yaratilishi nafaqat xalqimiz hayotidagi ulkan siyosiy, ijtimoiy-huquqiy voqea, balki xalqaro ahamiyatga molik yirik hodisa hamdir. O'ttiz yil tarix uchun qisqa davr

bo'lsa-da, Konstitutsiyamiz ushbu yillar mobaynida zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirib borildi.

Konstitutsiyamizni yaratish yo'lidagi eng asosiy qadamlardan biri – "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning e'lon qilinishi bilan bog'liq. O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning 8-bandida "O'zbekiston o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini o'zi ta'sis etadi" degan qoida mustahkamlangan. Deklaratsiyaning 12-bandida esa ushbu hujjat respublikaning "yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos" bo'lishi qayd etilgan. Shundan so'ng respublika parlamentining 1990-yil 21-iyundagi sessiyasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a'zoni birlashtirgan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.

Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan mamlakatimizning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, jahon tajribasi, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligida erishilgan yutuqlar

inobatga olingan Asosiy qonun loyihasini tayyorlashga kirishildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasi bir emas, ikki marotaba – 1992-yilning sentabr va noyabr oylarida umumxalq muhokamasidan o'tkazilib, keng jamoatchilik, xalqimiz ilgari surgan takliflar, g'oyalar va fikr-mulohazalar bilan boyitildi. Umumxalq muhokamasi jarayonida olti mingdan ortiq taklif va fikr-mulohazalar kelib tushgan. Nihoyat, 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh qomusimiz qabul qilindi. Shu sanadan e'tiboran, 8-dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi yangi demokratik jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. Ko'pgina xalqaro ekspertlar mamlakatimiz Konstitutsiyasi haqida so'z yuritar ekanlar, bir jihatni alohida ta'kidlaydilar: "O'zbekiston Bosh qomusining eng muhim g'oyasi bu insonni qadrlashga, xalqning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan".

Asosiy qonunimizda e'tirof etilganidek, mustaqil O'zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat hamda qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillarning amalda ta'minlanayotgani tufayli bugun Yangi O'zbekistonda har bir inson o'z huquqlari mustahkam himoyalanganini his etib, tinch va osoyishta hayot kechirmoqda.

**Podpolkovnik P. NOSIROV,
Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i**

YAXSHILIK ICHRA YAXSHILIK

Dunyoda yaxshiliklar ham, yaxshi insonlar ham ko'p. Bunday insoniy fazilatlarga har qancha ta'rif va tasnif bersak kam.

Voyaga yetmagan, mehnatga layoqatsiz, boquvchisini yo'qotgan bolalarning ijtimoiy ta'minot, bilim olish kabi huquqlari davlat himoyasida ekani esa mamlakatimizda hech kim e'tibordan chetda emasligidan dalolat. Fikrimizning yaqqol namunasini poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Xlebushkina nomidagi 22-Mehribonlik uyi misolida ko'rish mumkin. Ayni mavzuda muassasa direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Xursanoy Xolovadan batafsil ma'lumot oldik.

– Hozirgi kunda Mehribonlik uyiga qanday ijtimoiy yordam va g'amxo'rliklar ko'rsatilmoqda?

– Mehribonlik uyimizga qizg'in pallada keldingiz. Chunki hozirgina Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari erta tongdan kelib, bolalarimizga o'zlarining kutilmagan tashrifi bilan bayram sovg'alarini ulashishdi. Bolajonlarimizni xursand qilish uchun juda ko'p televizorlar olib kelishibdi. Endilikda bizda shunday imkon bo'ladiki, avval bolalarning umumiy dam olish xonasida atigi 1 ta televizor turgan bo'lsa, bu xayriya tuhfasini tufayli hamma xonalarda televizor bo'lishi mumkin. Bolalarimizning ehtiyojiga qarab, ushbu televizorlarni har bir dam olish xonalariga joylashtiramiz.

Yana bir tarafdin esa, ushbu televizorlarni yaxshi o'qiydigan, namunali xulqli, o'zining xonasini toza saqlaydigan bolalarimizga rag'bat sifatida berishni ham rejalashtirmoqdamiz. Ushbu rag'bat tarbiyaga juda katta yordam beradi. Qolaversa, biz kechagina oromgohdan keldik. Uchtepa tumani O'rikzor dahasida joylashgan oromgohimizda bo'lgan paytimizda ham bolalar biror narsaga zoriqmadi. Mana shu g'amxo'r davlatimiz hamda tadbirkor insonlarimiz bor ekan, bolalarning hamisha rizqi butun. O'z navbatida, jajji qalb sohiblari ham mana shu saxovat, beminnat ko'mak va yaxshiliklarni qalban his etadi. Davlatimiz va harbiy xizmatchilarning ko'rsatayotgan saxovatidan boshi osmonga yetadi.

– Bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ushbu Mehribonlik uyida faoliyat yuritayotgan to'garaklar haqida ma'lumot bersangiz.

– Hozirgi kunda 180 dan ortiq tarbiyalanuvchiga 20 nafar tarbiyachi ta'lim-tarbiya beradi. Yigit-qizlarimiz bu yerda 23 turdagi to'garak mashg'ulotlari bilan shug'ullanadi. "Tasviriy san'at", "Qashqar rubobi", "An'anaviy xonandalik", "Doira", "Estrada-vokal", "Kompyuter savodxonligi", "Bichish-tikishni o'rganamiz", "Pazandalik", "Futbol, basketbol, voleybol", "Shaxmat-shashka", "Ingliz tili", "Nemis tili", "Fransuz tili", "Yapon tili", "Koreys tili", "Mayda plastika", "Kamondan otish", "Ot sporti", "Sharq miniatyurasi" va "Mohir qo'llar" kabi to'garaklar shular jumlasidandir. Farzandlarimizning har biri hamma sohada kuchli, bilimli va yetuk shaxs bo'lib yetishishlarida o'qituvchilarimiz o'z bilimlarini ayamay, bolajonlarimizga ta'lim-tarbiya berib kelishmoqda.

– Yurtimizda bosqichma-bosqich Mehribonlik uylari tugatilib, tarbiyalanuvchilarni aksariyat oilalar o'z bag'riga olishga intilayotgani haqida qanday fikrdasiz?

– Prezidentimizning bu boradagi oqilona tashabbusi keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Meni necha yillar davomida shu narsa qiynar edi: "Nega O'zbekistonda shuncha Mehribonlik uyi bo'lishi kerak? O'zbekistonda bitta

yetim bo'lsa ham ko'p", deb o'ylayman. Shu vaqtgacha ayrim saxovatpesha oilalar ota-onalik baxtini inom qilish maqsadida bolalarni asrab olishar edi. Prezidentimizning tashabbusidan keyin bu xayrli amal yanada keng quloq yoydi, boz ustiga, ular davlat tomonidan berilgan qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishyapti. Bizdan ketgan bolalarni tashlab qo'ymaymiz. Milliy gvardiya ham o'sha oilaviy bolalar uylarini doimiy nazorat qilib turadi.

– Saxovat tushunchasiga qanday ta'rif bera olasiz?

– Menimcha, saxovat ko'zi to'qlik, bag'rikenglik va faqat o'zini emas, atrofdagilarni ham o'ylashdir. Ayniqsa, saxovat Mehribonlik hamda Muruvvat uylari uchun yordam qo'lini cho'zayotgan mehrlil qablarda, deb o'ylayman.

Bolalarim bilan konsert darsturi namoyish etish uchun Muruvvat uyiga ham borganman. Barchamiz birga yaxshilik ichida yaxshilik ulashishga intilamiz. To'g'risini aytсам, bizning yurtimiz – insonparvar yurt. Aynan shu insonparvalik saxovatpeshalikka yo'g'rilgan. Davlatimiz ularni hech nimaga zoriqtirib qo'ygani yo'q.

– Mazmunli suhbat uchun tashakkur.

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
Nodira ABDUSATTOROVA
suhbatlashdi.**

Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 45-modda

RAQOBAT MAYDONINING



Xalqaro arenalarni zabt etish uchun ichki sog'lom raqobat, mamlakat miqyosidagi musobaqalarning o'rni muhim. Qurolli Kuchlar sohasida ham bunday musobaqalar talaygina. Ulardan biri "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovidir. Bellashuvda Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya qo'shinlari safida xizmat qilayotgan ofitser va serjantlar "Eng ilg'or serjant", "Eng ilg'or guruh komandiri", "Eng ilg'or vzvod komandiri", "Eng ilg'or batalyon komandiri" va "Eng ilg'or brigada komandiri" yo'nalishlari bo'yicha bahslashadilar.

Markaziy harbiy okrugda joylashgan "Forish" tog' poligoni. Milliy armiyamiz jangovar salohiyatini oshirishda ko'plab nomlarni kashf etib ulgurgan ushbu mardiy maydonlar maskani "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovining navbatdagi g'olib va sovrindorlarini aniqlab berdi. Tantanali ochilish marosimida Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Oybek Saidov barchaga omad tilab, musobaqa murosasiz kurashlarga boy bo'lishiga ishonch bildirdi. Shuningdek, polkovnik Bekzod Ro'ziyev (*DXX Chegara qo'shinlari*), kapitan Lazizbek Jo'rayev (*IIV Qorovul qo'shinlari*) hamda mayor Hasan Qalandarov (*Milliy gvardiya*) ham o'z chiqishlarida tanlovning ahamiyatli jihatlari to'xtalib o'tgan holda, raqobat maydonida aniqlanadigan g'olib va sovrindorlar mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirishga xizmat qiladigan munosib kadrlar bo'lishini ta'kidladilar.

Ikkinchi marta tashkillashtirilgan ko'rik-tanlov davomida ishtirokchilar haqiqiy ma'noda o'z kasbining ustasi

ekanliklarini amalda namoyish etdi. "Forish" tog' poligoni o'quv bazasi va turli o'quv nuqtalarida e'tiborga molik qator natijalar qayd etildi. Barcha kuch tuzilmalari sharafini himoya qilgan harbiy xizmatchilar o'tgan yilgi natijalarni ortda qoldirish uchun murosasiz kurash olib borishdi. Chunki avvalgi natijalarni yangilash har bir ishtirokchiga sovrindorlar qatoridan o'rin olish imkoniyatini berish bilan birga yangi rekordlar o'rnatilishiga asos bo'ldi.

Ko'rik-tanlov nizomida ko'zda tutilgan barcha nominatsiyalar bo'yicha shartlar hamma uchun bir xilligi bilan ahamiyatli. Har bir yo'nalish sovrinli o'rini uchun da'vogarlar jangovar (*Makarov to'pponchasi va AK-74 avtomatidan otish*), jismoniy (*turnikda tortilish, 100, 3 000 metrga yugurish, brusda qo'lga tayanib, gavdani ko'tarib turish, yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish*) va taktik (*taktik harakatlarni xaritada chizish*) tayyorgarlik hamda Umumharbiy nizomlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi test savollarini yechish kabi shartlar bo'yicha bellashdi.

"Eng ilg'or brigada komandiri". Ushbu yo'nalishda ilk bor o'tkazilgan musobaqa rekordi 308 balldan iborat edi. Bu yil mazkur natija biryo'la olti nafar ishtirokchi tomonidan ortda qoldirildi. Eng qizig'i, ularning barchasi Mudofaa vazirligi sharafini himoya qilgan harbiy xizmatchilardir. Bu yo'nalish ishtirokchilari shaxsiy tarkibni boshqarishdagi komandirlik qobiliyatini ko'rik-tanlov shartlari asosiga qurilganini yana bir marta amalda isbotlab berishdi.

"Eng ilg'or batalyon komandiri". Batalyon komandirlari o'rtasidagi murosasiz bahslar natijasiga ko'ra, birinchi va ikkinchi o'rinlarga ikkitadan qatnashchi loyiq topildi. Jismoniy tayyorgarlik va test sinovlarida yuz foizlik natija ko'rsata olgan mayor Nabijon Siddiqov hamda mayor Bunyod Rizaqulov yakunda bir xil – 382 ball to'plashga muvaffaq bo'ldi. Sovrindorlar qatoridagi uch nafar batalyon komandiri ham g'oliblar singari musobaqaning o'tgan yilgi natijasi (*354 ball*)ni yangilab, bahslarning keskin kurashlarga boy bo'lishida o'z hissalarini qo'shdi.

"Eng ilg'or vzvod komandiri". Biryola sakkiz nafar qatnashchi tomonidan birinchi marta o'tkazilgan musobaqada g'oliblikni ta'minlagan 347 ballik ko'rsatkich ortda qoldirildi. Har bir kuch tuzilmasi sharafini himoya qilgan harbiy xizmatchi tomonidan shartlarning shijoat bilan bajarilishi ana shunday yuqori natijalar qayd etilishini ta'minladi.

"Eng ilg'or guruh komandiri". O'z-o'zidan ma'lumki, guruh komandirlari milliy armiyamizdagi eng yosh kadrlar bo'g'inini tashkil etadi. Oliy harbiy ta'lim dargohlaridan uchirma bo'lgan bu yosh kadrlar Qurolli Kuchlar safidagi xizmat faoliyatini mana shunday ko'rik-tanlovlar, musobaqalarda toblab borish kerakligini yaxshi anglashadi. "O'z kasbining ustasi" bahslarida Vatanga bo'lgan sadoqat yoshlik shijoatida aks etganiga guvoh bo'ldik. Sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchilar ilk bor o'tkazilgan musobaqada g'oliblikni ta'minlagan 359 ballik ko'rsatkichni ortda qoldirishga muvaffaq bo'ldi.

"Eng ilg'or serjant". Serjantlar haqida harbiy nizomlarda yozilmagan

M A R D L A R I



Muallif suratiga olgan

ko'plab ta'riflar mavjud. "Serjant – askarning armiyadagi ota-onasi" – kichik komandirlar tarkibiga berilgan eng haqqoniy ta'riflardan biri. Milliy armiyamiz tarkibidagi kichik komandirlar guruhi har jabhada haqiqiy jangchilarga xos jihatlari bilan ajralib turadi. "Forish" tog' poligonida ham serjantlarning ana shu jihatlari ko'plab kuzatganmiz. "Dovyurak jangchi", "Yo'riqchi serjantlar yig'ini", "Men g'olib!" shiori ostida tashkillashtiriladigan musobaqalar... "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovi barcha kuch tuzilmalarida Vatan oldidagi sharaflı burchini ado etayotgan yigitlar uchun o'z bilim va ko'nikmalarini namoyon etishga imkoniyat yaratdi. Bu imkoniyatdan barcha birdek foydalanishga harakat qildi va natijada birinchi marta o'tkazilgan musobaqada g'oliblikni ta'minlagan natijalar zabt etildi.

Ko'rik-tanlov davomida qatnashchilarning rekordlar va natijalari yangilashga bo'lgan urinishlariga, do'stona va murosasiz bellashuvlariga guvoh bo'ldik. Eng muhimi, 2020-yilli

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bu borada qabul qilingan qarorning qanchalik muhimligi amalda isbotlandi va isbotlab kelinmoqda. Chunki qarorning asosiy tezisi – ko'rik-tanlov g'oliblarini aniqlash barobarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun yuqori lavozimlarga kadrlar zaxirasini yaratishdan iborat. Bu holat ko'rik-tanlovning respublika bosqichi g'oliblariga beriladigan imtiyozlarda ham o'z aksini topadi.

Imtiyozlar esa quyidagicha: "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasi g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash markaziga tanlovdan tashqari o'qishga kirish; "Eng ilg'or guruh komandiri" nominatsiyasi bo'yicha g'oliblarni yuqori lavozimga tayinlash uchun kadrlar zaxirasiga kiritish; "Eng ilg'or vzvod komandiri" nominatsiyasi g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi Malaka oshirish fakultetining oliy kurslariga tanlovsiz o'qishga kirish, yuqori lavozimga tayinlash uchun kadrlar zaxirasiga kiritish; "Eng ilg'or batalyon

komandiri" nominatsiyasi g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakultetiga tanlovsiz o'qishga kirish, yuqori lavozimga tayinlash uchun kadrlar zaxirasiga kiritish; "Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyasi g'oliblari yuqori lavozimga tayinlash uchun kadrlar zaxirasiga kiritish.

E'tiborli jihati, bu yilgi "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovi shohsupasida bir yo'nalishdagi yagona o'rindan tashqari barcha o'rinlar Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilariga nasib etdi:

"Eng ilg'or brigada komandiri":
1-o'rin. Podpolkovnik Farrux Rasulov.
2-o'rin. Podpolkovnik Jamshid Bayzakov.

3-o'rin. Podpolkovnik Dilmurod Achilov.

"Eng ilg'or batalyon komandiri":
1-o'rin. Mayor Nabijon Siddiqov, mayor Bunyod Rizaqulov (*Milliy gvardiya*).

2-o'rin. Podpolkovnik Azizjon Nazarov, podpolkovnik Sherzod Gafurov.

3-o'rin. Mayor Farhod Ro'ziqulov.
"Eng ilg'or vzvod komandiri":
1-o'rin. Kapitan Akmaljon Po'latov.
2-o'rin. Kapitan Abdurasul Oxundadayev.

3-o'rin. Kapitan Quvondiq Xalmuradov.

"Eng ilg'or guruh komandiri":
1-o'rin. Katta leytenant Nuriddin Rahmatov.

2-o'rin. Kapitan Izzatullo Usmonov.
3-o'rin. Katta leytenant Rustam Jo'rayev.

"Eng ilg'or serjant":
1-o'rin. III darajali serjant Elyor Salomov.

2-o'rin. Kichik serjant Abdurasul Tuyg'unov.
3-o'rin. III darajali serjant Uchqun Akbutayev.

Eslatib o'tamiz, ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlari 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni tantanali tarzda taqdirlanadi.

Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»

Mardi maydonlar

CHIMYONDAGI BAHS

...TOG'. HAVO HARORATI ANCHA SOVUQ. IZG'IRIN SHAMOL UVULLAYDI. DAM SHU SHAMOL QOR UCHQUNLARINI ATROFGA SOCHSA, SAL TURIB SHIG'IRLAB, YOMG'IRNI YETAKLAB KELADI. QISQA QILIB AYTGANDA, BU FASLDA IQLIM TEZ O'ZGARADI. BU AYNIQSA, TOG' SHAROITIDA INSONNI BIR QANCHA QIYINCHILIKLARGA RO'BARO' QILADI.



“Chimyon” tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlari markazida “Tog' ishg'ol” guruhlarida shunday iqlim sharoitida o'zaro kuch sinashga kirishdilar. Mazkur musobaqa maxsus operatsiya kuchlari bo'linmalari “Tog' ishg'ol” guruhlarida va mutaxassislari o'rtasida sog'lom raqobatni tashkil etish, tog'ning og'ir iqlim sharoitlarida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilarni rag'batlantirish va ularning o'z kasbining yetuk ustasi bo'lib yetishishiga imkoniyat yaratish hamda bo'linmalarning jangovar shayligini saqlash, harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida tashkil qilindi. Ushbu guruhlar tarkibida 18 nafar harbiy

xizmatchidan iborat mutaxassislar ishtirok etdi.

Musobaqaning birinchi bosqichida guruh harbiy xizmatchilari mutaxassislik bo'yicha amaliy vazifani bajarib, tog' tayyorgarligi yo'nalishida nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Shundan so'ng “Tog'li hududlarda azimutlar bo'yicha harakatlanish uchun ma'lumotlarni tayyorlash”, “Nishonlarni razvedka qilish”, “Mutaxassis-mergan”, “Mutaxassis-pulemyotchi”, “Mutaxassis-granatamyotchi”, “Mutaxassis-haydovchi” kabi yo'nalishlarda bahslashishga kirishdi.

Ikkinchi bosqichda esa uzoq masofaga maxsus vazifalarni bajargan

holda safar yurishini amalga oshirishdi. Unda guruhlar 15–20 km bo'lgan yo'nalish bo'ylab baland tog'lar va dovonlar orqali harakatlanib, 6 ta nuqtada yakka tartibda minali maydondan o'tish va portlatish uchun hisoblarni ishlab chiqish, aloqaga chiqish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi maxsus vazifalarni bajarishdi. Shuningdek, ular Katta Chimyon cho'qqisini zabt etish, tog' daryolaridan parallel usulda o'tish, tabiiy qoyaga ko'tarilish kabi maxsus vazifalarni ham ketma-ketlikda bajarib soha bo'yicha o'zlarining nechog'li bilim va ko'nikmaga ega ekanliklarini namoyish qildilar.

Musobaqa yakuniga ko'ra, shartlarda yuqori natijalarni ko'rsatgan ishtirokchilar “Guruh komandiri”, “Guruh komandiri o'rinbosari”, “Mutaxassis-ognemyotchi (granatomyotchi)”, “Mutaxassis-mergan”, “Mutaxassis-pulemyotchi”, “Mutaxassis-portlatuvchi”, “Mutaxassis-radiotelefonchi”, “Mutaxassis-feldsher” va “Mutaxassis-haydovchi” kabi nominatsiyalar g'olibi bo'ldi. Katta leytenant Zafar Xoljigitov komandirlik qilgan guruh musobaqaning mutlaq g'olibiga aylandi.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»



Bugunimiz qahramonlari

“MAKTABGA QO‘LDA BORGANMAN”

Bugungi suhbatdoshimiz haqida kirish so‘zni yozish uchun turli variantlar keldi. Goh uning sabridan boshlamoqchi bo‘ldim, goh irodasidan, goho qat‘iyatligi barchasidan ustunroq, degan xulosa qildim-u, ammo kitobga oshnoligi ham meni ta‘sirlandirdi. Dunyoqarashi keng, kamsuqum, samimiy inson ekanligi barchasidan ustundek. Shuning uchun kirish so‘zni yozmasdan, uning ichki kechinmalarini havola etishni ma‘qul bildim.



NURIDDIN DAVLATOV

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tavallud topgan. Ko‘p karra O‘zbekiston chempioni. Ko‘plab xalqaro turnirlar g‘olibi va sovrindori. 2014-yildan O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi. Para og‘ir atletika bo‘yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. 2021-yili jahon kubogi g‘olibi (Manchester). 2021-yili jahon kubogi g‘olibi (Tbilisi). 2020-yilgi Tokio Paralimpiya o‘yinlari ishtirokchisi. 2022-yili Osiyo–Okeaniya ochiq chempionati 1-o‘rin (Pxyontxek shahri Janubiy Koreya).

SPORTGA QADAM

Qashqadaryoning asl o‘g‘lonlari singari kurash bilan shug‘ullanganman. Ammo oyog‘imdagi jarohat sabab kurashchi bo‘la olmasligim aniq edi. Shundan keyin uzoq o‘ylab o‘tirmay, sportning armrestling turi bilan muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazdim. Inson o‘zligini topgunicha har maqomga yo‘rg‘alarkan. 2014-yili suzish bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida qatnashib, 3-o‘rinni qo‘lga kiritganimdan keyin musobaqa ishtirokchilaridan biri pauerliftingda o‘zimni sinab ko‘rishim kerakligini tavsiya qildi. Men ham tavakkal qildim. U aytgan joyga kelib, o‘zimni sinovdan o‘tkazib ko‘rishlarini aytganimda, ustozlarimiz yo‘q demasdan menga imkon berishdi. Ular tomonidan qo‘yilgan yuklarni bajarganimdan keyin meni terma jamoaga qabul qilishdi. Og‘ir atletika ham og‘irlik qilmagan. Sababi oilada dadamning sportga bo‘lgan mehri bizga doim kuch bergan, dalda bo‘lgan. Bolaligimdan uyimizda og‘ir toshlar bo‘lgan va ularni ko‘tarishga harakat qilganmiz. Demog‘chimanki, ko‘z ochib ko‘rganimiz hovlimizdagi 16 kg, 32 kg toshlar bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak, ukam ham bolalikdan toshlarni ko‘rib, ko‘zi qotgani bois O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining og‘ir atletika yo‘nalishini tamomlab, hozirda Chiroqchi tumanida murabbiylik qilmoqda.

IMKONIYATNING CHEKLANISHI

3 yoshimda shifokorlarning noto‘g‘ri tashxisi tufayli, ya‘ni qilingan ukol sabab bir oyog‘im shol bo‘lib qoldi. Uzoq yillar davolandim. Ammo foyda bermadi. Boshida hassa bilan yurardim. Keyin sekin-asta o‘z oyoqlarimga tayanib yurishni o‘rgandim. Bu o‘rganishlarim ortida sportning o‘rni beqiyos. Buni so‘z bilan ta‘riflab berolmayman. Oyoq pand berganda, qo‘l bilan yurishni ham sport o‘rgatdi. Maktabga borar

ekanman, yarim yo‘lni qo‘lim bilan bosib o‘tgan kunlarim bo‘lgan. Har narsada xayr bor ekan. O‘sha paytlarda butun tanamni ko‘tarib yurishga ko‘nikkan qo‘lim vaqti kelib, og‘ir toshlarni ham bemalol ko‘tara oldi.

VATAN HIMOYASI

Maktabda o‘qib yurganimda sinfdoshlarim bilan ko‘p urishib qolardim. Bolaligimda juda urishqoq bo‘lganman. Sinfdan o‘zimni himoya qilish uchun urishsam, boshqa sinf bolalari bilan o‘z sinfimning himoyasi uchun jang qilardim. Agar boshqa maktab bolalari bilan kelishmovchilik bo‘lsa, albatta, o‘z maktabim va sinfdoshlarim himoyasi uchun bor kuchimni ayamadim. Aslida bularning tag zamirida or-nomus va yigitlik g‘ururi turibdi. Vaqti kelib, jahon chempionatlarida yuzlab davlatlar bayrog‘i orasidan yurtim bayrog‘ining balandroq ko‘tarilishi uchun kurashganimda bildimki, Vatani himoyasi asli o‘zlikni anglashdan boshlanarkan. Har bir yigit orzusi kabi men ham harbiy bo‘lishni orzu qilganman. Sog‘lig‘im tufayli bu orzumga yetolmagan bo‘lsam-da, yurt himoyasi yo‘lida shu elning “yuzi”ni yerga qaratmaslikka harakat qildim. Mudofaa vazirligi sportchisi, degan nomga sazovor bo‘ldim. Aslida men o‘z orzumga yetishdim. Ota-onamning faxri, yurtning erka farzandi bo‘lib, uning ardog‘ida 3 nafar farzandimni voyaga yetkazayotganimdan faxrlanaman.

TUSHKUNLIK VA MOTIVATSIYA

Ko‘pchilik o‘ylaydiki, imkoniyati cheklangan insonning armoni bo‘ladi. Men keskin “yo‘q” degan javobni beraman. Biz qanday holatda bo‘lishimizdan qat‘i nazar, chiroyli va mazmunli yashab o‘tishimiz shart. Umr qisqa, har bir lahzasida yashash kerak. Shuning uchun har doim yaxshi kayfiyatda, yaxshi insonlar davrasida va to‘g‘ri ishlar bilan mashg‘ul


bo‘lishni afzal bilaman. Hayot yo‘lida yo‘qotish va topishlar bo‘lishi tabiiy. Hech bir inson yo‘qki, bunday alamlarni tatib ko‘rmagan bo‘lsa. Yoshligimizga borib, ko‘p xatolar qilganmiz. Tushunmovchilik, yoshlikning g‘o‘rligi. Ammo vaqt degan oliy hakam o‘tgan sayin hayot o‘z so‘zini aytganicha, sekin bosib qo‘yaverarkan. Bunda ko‘rganlarimiz, eshitganlarimiz bizga saboq. 2016-yili Braziliyada bo‘lib o‘tgan Paralimpiya o‘yinlarida gretsiyalik raqibim birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Qiziq tomoni, o‘sha yili u 45 yoshda edi. Demak, inson harakat qilsa, hammasini uddalaydi. Menga eng katta motivatsiyani o‘sha raqibim bergan.

ERKAKLIK MAS‘ULIYATI

Menda hech qachon mehnatdan uyalish hissi bo‘lmagan. Bolalarim va oilamning imkoniyatlarini qondirish uchun har qanday halol ishni bajarganman. O‘g‘rilikdan va yomon ishlardan doim yiroqda bo‘ldim. Vaqti kelsa, kirakashlik qildim, og‘ir mehnatlarni ham bajardim. Agar yana shunday qilishim kerak bo‘lsa, hech ikkilanmasdan bajaraman. Muhimi, bolalarim hech narsaga zoriqmasdan ulg‘ayishi kerak. Agar ularning biror narsaga muhtojligini bilsam, menga hech narsa tatimaydi. Ham ota sifatida, ham er sifatida bunday holatni umuman hazm qilolmayman. Ko‘nglim xotirjam bo‘lmas ekan, mashg‘ulotlarimda ham, ishimda ham unum bo‘lmaydi. Oilamning tinch va totuvligi menga eng katta xotirjamlikni beradi. Ular oldidagi burchimni doim oqlashga harakat qilaman.

MUTOLAA

Kitob – yaqin do‘stim. Ayniqsa, o‘qiyotgan asarlarim tarixiy bo‘lsa, mendan baxtli inson bo‘lmaydi. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani – eng yaxshi ko‘rgan asarim. 10 martadan ortiq o‘qib



chiqdim. Har gal o‘qiganimda, o‘zim uchun yangilik topaveraman. Bobur haqiqatan ham nodir shaxs. Kim qanday fikrda, bilmadim-ku, ammo vatanparvarlikning aslini Boburdan o‘rganish kerak, degan bo‘lardim. Hindistonda shunday katta imperiyaga asos solishiga qaramasdan, yurt sog‘inchi hech qachon uni tark etmadi. So‘nggi nafasigacha Vatani – Andijonni qo‘msab o‘tdi. Biror bosqinchi o‘zga yurtni bosib olganda Boburchalik fidoyi va bag‘rikeng bo‘lmagan. Shuning uchun uning odamiyligi, shoirligi va shohliligini inkor etmagan holda, xokisorligini ham e‘tirof etaman. Men xohlardimki, barcha yoshlar Bobur hayoti va ijodini chuqurroq o‘rganishsin. Bizning tariximiz juda boy va qadimiy. Shuning uchun o‘zligimizni anglashimiz, haqiqiy vatanparvar bo‘lishimiz uchun albatta, ajdodlarimizning hayoti va ijodini o‘qishimiz kerak.

BAXT

Men eng baxtli insonman. Dunyoning 20 dan ortiq davlatida safarda bo‘ldim. Gohida delegatsiya tarkibida borib, 15–20 kun qolib ketganmiz. Uzog‘i 3 kunda yurt sog‘inchi qiynaydi. Ota-onam, bolalarim ko‘zimga ko‘rinadi. Ammo men sog‘ingan insonlar tinch yurtda, Vatanga sodiq o‘g‘lonlar kamarbasta bo‘lib qo‘riqlayotgan zaminda ekanligi xotirjamligimga garov bo‘ladi. Bundan ortiq baxt bormi?! Men baxtliman, duogo‘ylarim – ota-onam hayot. Yon-atrofimda do‘stlarim. Harakat qilsam, barcha imkoniyatlar yaratilgan yurtda yashayapman. Men shu baxtning o‘ziga shukrona qilsam, yetadi.

Sherzod SHARIPOV

Anjuman

CHORA-TADBIRLAR BELGILANDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi tomonidan "Fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimi: mavjud imkoniyatlar va rivojlantirish istiqbollari" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.



Tadbir Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Mudofaa, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi mas'ullari, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va uning tarkibiy tuzilmalari rahbar xodimlari ishtirok etdi.

Konferensiyada ishtirok etgan vakillar o'zlari faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda fuqarolar, ayniqsa, yoshlarni kasbga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'ruza qilib, ushbu yo'nalishda "Vatanparvar" tashkiloti bilan mustahkam hamkorlikda ish olib borish bo'yicha taklif va mulohazalarini bildirdi.

Tadbir ishtirokchilari "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan "Yoshlar daftari", "Temir daftar" hamda "Ayollar daftari" dan o'rin olgan fuqarolarni imtiyoz asosida ommaviy texnik kasblarga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga yuksak baho berdi.

Konferensiya yakunida vazirlik va idoralar bilan "Vatanparvar" tashkiloti o'rtasida fuqarolarni ommaviy texnik kasblarga o'qitishga doir hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Sh. SHARIPOV

Uchrashuv

OILA – MUQADDAS DARGOH



Senator Farida Abdurahimova hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Dilbar G'ulomova Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy xizmatchilari va tinglovchilarining oila a'zolari bilan uchrashdi.

Ko'p yillik hayotiy ham kasbiy tajribaga ega, el orasida hurmat qozongan bu ayollarning Vatan himoyachilarining rafiqalariga aytar so'zlari ko'p ekan. Ularning oilaviy masalalarni hal etish, xotin-qizlarni qiyinayotgan muammolarga yechim topish, gender tengligi, milliy qadriyatlar, xalqimizning ezgu fazilatlarini va ularning oilada shakllanishi haqidagi qiziqarli hikoyalardan iborat ma'ruzalarini yig'ilganlar diqqat bilan tingladilar. Uchrashuv davomida mehmonlar turli mavzudagi savollarga ham batafsil javob berdilar.

O'z muxbirimiz

Ko'rik-tanlov



TAJRIBALI, TARTIBLI, TASHABBUSKOR

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i", "Eng yaxshi kutubxona" va "Eng yaxshi kutubxonachi" ko'rik-tanlovlarning yakuniy bosqichi o'tkazildi. Unda harbiy okrug va qo'mondonliklarda yuqori o'rinlarni egallagan eng kuchlilar bellashdi.



"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida o'tkazilgan tanlovga Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazidan shoir Safar Olloyor, Yozuvchilar uyushmasidan Ma'mura Zohidova, O'zbekiston milliy kutubxonasi xodimi Shoira Rahimova, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan Muyassar Boltaboyeva, Mudofaa vazirligi ma'naviyat va ma'rifat markazidan Baxtiyor Jo'rayev hakamlik qildi. Tanlov shartlarini bajarishga kirishgan ishtirokchilarning chiqishlari hakamlar tomonidan sinchkovlik bilan kuzatib borildi. Murosasiz kechgan ko'rik-tanlovning yakuni bo'yicha o'rinlar quyidagicha taqsimlandi:

**"Eng yaxshi kutubxona" yo'nalishida**

- 1-o'rin – Toshkent harbiy okrugi;
- 2-o'rin – Sharqiy harbiy okrug;
- 3-o'rin – Markaziy harbiy okrug.

"Eng yaxshi kutubxonachi" yo'nalishida

- 1-o'rin – Parvina Abduhamidova (MHO);
- 2-o'rin – Maftuna Jumayeva (JG'MHO);
- 3-o'rin – Zeboxon Raupova (HMM va HHKQ).



Muallif suratiga olgan

**"Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i" yo'nalishida**

- 1-o'rin – kichik serjant Abbas Safaraliyev (TOQQQ);
- 2-o'rin – Gulzoda Mamatova (SHG'HO);
- 3-o'rin – Feruza Ochilova (MHO).

G'oliblar diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tanlov O'zbekiston Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansamblining xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy va qo'shiqlar bilan yakunlandi.

Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»

Armiya va yoshlar

HARBIY INSTITUTDA BIR KUN

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida Zangiota tumani mudofaa ishlari bo'limi va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Tadbirida Zangiota tumanidagi 1-, Toshkent tumanidagi 9-umumta'lim maktablaridan yuzga yaqin o'quvchi-yoshlar, shuningdek, mahalla yetakchilari ishtirok etdi. Mehmonlar muassasa faoliyati, kursantlarga yaratilgan sharoitlar, zamonaviy o'quv xonalari, ilmiy tadqiqotlar laboratoriyasi, shinam yotoqxonalari, sport majmuasi bilan yaqindan tanishishdi.

Qurol-aslahalar ko'rgazmasi namoyish etilgan ochiq eshiklar kunida o'quvchi-yoshlar ham o'zlarining badiiy chiqishlari bilan barchani hayratga soldi.



Kun davomidagi sayohat, kursantlar bilan birgalikda o'tkazilgan ochiq darslar, ayniqsa, harbiy xizmatchilar bilan "Jaloliddin Manguberdi" va "Amir Temur" tematik sinflaridagi mazmunli hamda samimiy suhbat yoshlarning harbiy sohaga qiziqishlarini yanada oshirdi.

Bu kabi tadbirlar o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mayor Sherqo'zi HAKIMOV

E'tirof

ANSAMBL XONANDASI "OFARIN" G'OLIBI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari markaziy ashula va raqs ansambli a'zosi Akbar Fayziyev "Ofarin" an'anaviy estrada xonandalari respublika ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.



Mazkur tanlov O'zbekiston ijodkor yoshlarini jahon estrada musiqa san'atining an'anaviy qadriyatlariga jalb etish, xalqaro darajada bellasha oladigan iqtidorli xonandalarni aniqlash maqsadida o'tkazildi.

Tanlov dasturiga ko'ra, ishtirokchi xorijiy xit – butunjahon estrada sahnasining yulduzlari repertuariga oid mashhur qo'shiqlar hamda o'zbek tilidagi qo'shiq – musiqa olamidagi klassik va zamonaviy bastakorlarning asarlari yoki o'zbek estradasining taniqli vakillari repertuarlaridan namunalar kuyladi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Qurolli Kuchlar markaziy ashula va raqs ansambli xonandasi Akbar Fayziyev g'olib, deb topildi.

Tahririyat

Islohotlar amalda

BIRDAMLIK RAMZI

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilish, ularni uy-joy bilan ta'minlash, yashash hamda xizmat o'tashning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini muntazam ravishda o'rganib kelmoqda. Shuningdek, Vatan himoyachilarining tibbiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini olib bormoqda.



Jamoatchilik kengashi a'zolari bu gal Toshkent garnizonida joylashgan Mudofaa vazirligiga

qarashli harbiy qismlarning birida harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rgandi.

Jumladan, yotoqxona, oshxona va kutubxonada bo'lib, harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashdi.

"Adiblar xiyoboni", Yangi O'zbekiston muzeyi va mukammal sharoitlarga ega bo'lgan sport majmuasi bilan yaqindan tanishildi.

Tashrifning madaniy qismida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, turli murakkab hamda og'ir vaziyatlarga nisbatan ruhiy bardoshlilikini oshirishda ko'tarinki ruh bag'ishlovchi "Jangovar ruh" videoroligi hamda "Meni kechir" nomli videofilm namoyish etildi.

Harbiy xizmatchilar ijrosidagi buyuk sarkardalarimiz hamda jadidlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari mehmonlar tomonidan yuksak baholandi. Tashrif so'ngida yangi tashkil etilgan harbiy orkestr jamoasi ijrosidagi konsert dasturi taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining harbiy qism va muassasalarga uyushtirayotgan bu kabi tashriflari xalq va armiya birdamligining yaqqol ko'rinishidir.

Leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
«Vatanparvar»

Harbiy-vatanparvarlik

DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlar shaxsiy tarkibi tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ona yurtga sadoqatli, mard va jasur insonlar sifatida kamolga yetishlarini ta'minlash maqsadida respublikamizning chegara oldi hududlaridagi umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi 14-umumta'lim maktabida tashkil etilgan ma'naviy tadbir shular jumlasidan.

YAKDILLIKNI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA

DXX Chegara qo'shinlari faxriylari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etgan tadbirida so'z olganlar bugun mamlakatimizda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor va ular uchun yaratilayotgan sharoitlar xususida to'xtalib, Vatan tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash ishiga barchamiz birdek mas'ul ekanimizni alohida ta'kidladi.

Shundan so'ng sportning tosh ko'tarish, qo'l jangi va universal jang turlari bo'yicha bir necha bor jahon chempioni bo'lgan harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida motivatsion suhbat boshlandi. Savol-javoblarga boy tarzda o'tgan suhbat davomida harbiy sportchilar o'quvchilarga jismonan chiniqishning inson salomatligi va ruhiyati uchun foydasi, g'alabaga erishishning sir-asrorlari, qat'iyat hamda shijoat tushunchalarining mazmun-mohiyati xususida fikr yuritdi.



Tadbirning ochiq osmon ostida davom etgan qismida esa yoshlar e'tiboriga harbiy xizmatchilar tomonidan ko'rgazmali jangovar chiqishlar havola qilindi. Harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi davomida ularning tuzilishi va qo'llanilishiga oid ma'lumotlarni o'quvchilarga so'zlab berdi.

Shu kabi yana bir tadbir viloyatning 26-umumta'lim maktabida "O'zbekiston – bag'rikeng diyor!" shiori ostida tashkil

etildi. DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari ishtirok etgan navbatdagi tadbir o'quvchilar o'rtasida rasm tanlovi bilan boshlandi.

Shundan so'ng ziyo maskanining faollar zalida iqtidorli o'quvchilar o'zlarining badiiy chiqishlari hamda bag'rikeng diyorumizda ahillikda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning bir-birini takrorlamas go'zal raqslarini ijro etib, yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbir davomida rasmlar tanlovining g'oliblar va sovrindorlari diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Albatta, bu kabi tadbirlar xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlashga zamin yaratishi shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Ilmiy-amaliy konferensiya



TIBBIY TA'MINOT TAKOMILI YO'LIDA

Harbiy shifokorlarni mavzu bo'yicha zamonaviy bilimlardan boxabar qilish, shu orqali malakasini oshirish maqsadida tashkil etilgan anjumanda kuch tuzilmalarida xizmat qilayotgan harbiy tibbiyot xodimlari ishtirok etdi. Ma'ruzalarda zamonaviy janglarda tibbiy ta'minotni tashkillashtirish, shu jarayonda mobil tibbiy guruhlarining ahamiyati, tashkiliy tuzilishi, imkoniyatiga alohida urg'u berildi.

Xorij tajribasiga to'xtalib, jangda tibbiy ta'minotni tashkillashtirish borasida kuch tuzilmalari va Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiy bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalar,

jang sharoitida olingan jarohatlarning yiringli asoratlarini davolash taktikasi kabi muhim masalalar bo'yicha yangi bilimlar berildi. Davolash-evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam



ko'rsatishdagi o'limga olib keluvchi xato va kamchiliklar tanqidiy tahlil qilindi. Ularni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy choratadbirlar ilgari surildi. Ekranida namoyish etilgan slaydlar konferensiya ishtirokchilarining mavzu bo'yicha batafsil ma'lumot

zamonaviy jangovar jarohatlarda tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari, davolash-evakuatsiya bosqichlari uzluksizligini ta'minlashning dolzarb muammolari va ularning samarali yechimlari haqida so'z yuritildi. Yuz-jag', umurtqa pog'onasi hamda ko'krak qafasi sohasidan jarohatlangan yaradorlarga tibbiy yordam ko'rsatish,

olishlariga ko'mak berdi. Kunning ikkinchi yarmida jangda tibbiy ta'minotni tashkillashtirish bo'yicha yakuniy xulosalar o'rtaga tashlandi va mavzu bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish loyihasi yuzasidan takliflar umumlashtirildi.

Mayor Gulnora HOJIMURODOVA

Bitiruv

Mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga asosan, harbiy qism va muassasalarda xizmat qilayotgan harbiy psixologlar joriy yilning 21-oktabridan 30-noyabriga qadar poytaxtimizdagi "Psixosfera" amaliy psixologiya markazida malaka oshirdi.

Davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida ikkinchi marotaba tashkillashtirilgan kurs davomida tinglovchilarga markazning malakali mutaxassislari, amaliy psixologlar hamda nufuzli ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari harbiy psixodiagnostika, amaliy harbiy psixologiya asoslari, harbiy xizmatda psixologik konsultatsiya o'tkazish metodikasi, harbiy-psixologik



HARBIY PSIXOLOGLAR MALAKA OSHIRDI

korreksiya asoslari, suitsidal xulq profilaktikasi va psixologik trening o'tkazish metodikasi kabi yo'nalishlarda mashg'ulot o'tdi.

342 o'quv soatidan iborat bo'lgan kurs so'ngida tinglovchilarga sertifikatlar

topshirildi. Taqdirlash marosimi Qurolli Kuchlar davlat muzeyida bo'lib o'tdi. Unda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari, tinglovchilar va ularga saboq bergan professor-o'qituvchilar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar harbiy psixologlarning

amaliy psixologiya bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalari kelgusida psixologik xizmatni tashkillashtirishda muhim dasturilamal bo'lishini ta'kidladilar.

G. HOJIMURODOVA

Huquq

TARAQQIYOT KUSHANDASI

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida harbiy jamoalarda sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni yaratish, shaxsiy tarkibning huquqiy bilimlari va madaniyatini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga ongli ravishda yondashish, harbiy xizmatchilarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Tadbirda Toshkent harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Mudofaa vazirligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi mas'ul xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan mutaxassislar korrupsiya vayronkor



kuch ekani, uning oqibatida milliy iqtisodiyot izdan chiqishi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashishi, hokimiyatga ishonch yo'qolishi, haqida ta'kidlab o'tdi.

Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas,

barchamizning umumiy ishimizdir. Birgalikda kurashsakina, ushbu xavfni bartaraf etishimiz mumkin.

**Adliya polkovnigi
Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining
yordamchisi**

SONLAR ORTIDAGI TAQDIRLAR

O'zbekistonda 2022-yilning 10 oyi davomida yuz bergan 7 636 ta yo'l-transport hodisasi oqibatida 1 931 kishi halok bo'ldi, ularning 226 nafari — bolalar. 2021-yil davomida yurtimizda 10 001 ta YTH yuz bergan bo'lib, ularda 9 230 kishi tan jarohati olgan, 2 426 kishi halok bo'lgan. Mamlakatda 2019 va 2020-yillarda YTH oqibatida mos ravishda 1 915 va 1 962 kishi halok bo'lgan edi.

QO'RG'ON

SAHIFALARDA TOSHKENT HARBIIY OKRUGI FAOLIYATIDAN LAVHALAR BERILMOQDA

“SARIDALA” DA MAHORAT SAYQALLANADI

Mudofaa vazirligi tizimida qo'shnlarning jangovar shayligini oshirish, har qanday vaziyatda yuklatilgan vazifani tezkor va sifatli bajarish qobiliyatiga ega professional harbiy xizmatchilarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada “Saridala” o'quv bazasida o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning ham ahamiyati beqiyos bo'lmoqda.




Tog' yon-bag'rida joylashgan mazkur o'quv bazasida harbiy xizmatchilar tog' tayyorgarligi bo'yicha ilk bilim va ko'nikmalarni olish orqali murakkab tog' sharoitida harakatlanish malakasiga ega bo'ladi va shu orqali jangovar tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Barcha o'quv nuqtalari zamon talablariga mos ravishda barpo etilgan, kerakli o'quv-moddiy baza va zamonaviy vositalar bilan

to'liq jihozlangan bu ilm maskanida harbiy xizmatchilarning individual hamda professional tayyorgarligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Mashqlarning real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda tashkil etilishi esa mashg'ulot mavzusining yanada tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bu yerda o'tkaziladigan mashg'ulotlar qiziqarli va qizg'in kechadi.

Eng muhimi, yurt himoyachilari mashg'ulotlar davomida belgilangan rejaga muvofiq, o'quv nuqtalarida tog' tayyorgarligi bo'yicha turli murakkab mashqlarni bajarib, yuqori jangovar tayyorgarlik va mahoratga ega ekanliklarini namoyish etishadi.





Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi “Markaz” desantchilar tayyorlash bazasida shartnoma bo‘yicha endigina xizmatni boshlagan kichik mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida 10 kunlik majmuaviy o‘quv kurslari tashkil etildi.



**OSMONDA
XATO QILIB BO‘LMAYDI**



Yig‘in ishtirokchilari kurs davomida yo‘riqchi-mutaxassislardan jangovar, jismoniy va yer tayyorgarligi (*samolyotdan sakrashni o‘rganish, parashyutni taxlash*) bo‘yicha saboq oldi. Mashg‘ulotlar qizg‘in kechdi. Olingan nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlandi. Mana shu jarayonda harbiy xizmatchilarning yanada faolligi ko‘zga yaqqol tashlandi. Ular mashg‘ulot rahbarini tinimsiz savolga tutib, mavzu bo‘yicha yetarlicha ko‘nikmaga ega bo‘lishga intilishdi. Chunki osmonda amalga oshiriladigan birgina kichik xatolik katta salbiy oqibatlariga sabab bo‘lishi hech gap emas. Shuning uchun tinglovchilar, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda yo‘riqchilarning har bir xatti-harakatini hushyorlik va sergaklik bilan kuzatib borishdi.

Bilamizki, harbiy xizmatchining faoliyati davomida xavf-u xatar, nostandart vaziyatlar ham bo‘ladi. Agar desantchilar shunday murakkabliklarga duch kelsa-chi? Unda qanday yo‘l tutmoq kerak? Masalan, havodan sakrayotgan desantchining parashyuti ochilmas qolsa! Mashg‘ulot davomida berilgan bu savolga javoban shunday holatlarda zaxira parashyutidan qanday foydalanish, uni qay tarafga yo‘naltirish kerakligi bo‘yicha yo‘riqchi-mutaxassisdan batafsil ma‘lumot olishdi. Shu asnoda parashyutdan sakrash texnikasini mayda detallarigacha o‘rganishdi.

Taassurotlarga boy bo‘lgan kurs yakunida tinglovchilarga tantanalni ravishda sertifikatlar topshirildi.

Musobaqa

TO'MARIS IZDOSHLARI

Bugun hayotimizning qaysi jabhasini olmaylik, barchasida opa-singillarimizning fidokorona xizmat qilayotganini ko'ramiz. Ha, ular nafaqat davlat va jamiyat ishlarida, balki mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash yo'lida ham munosib xizmat qilishmoqda. Egniga harbiy libos kiyib, yurt osoyishtaligini va tinchligini yigitlar bilan bir safda turib himoya qilayotgan bu nozik qalb sohibalari shu orqali mardlik va jasoratda To'marisning davomchilari ekanliklarini namoyon qilmoqda.



Joriy yilda Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida ilk marotaba o'tkazilgan

"To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovi ham shunday jasur harbiy ayollarni yuzaga chiqargani bilan ahamiyatli bo'ldi.



Bosqichma-bosqich o'tkazilgan bellashuvlar dastlab harbiy qism va muassasalarda, undan keyin okrug miqyosida o'tkazildi. Unda saralab olingan 10 ta eng kuchli jamoa musobaqaning yakuniy bosqichida bellashdi.

Tanlov nizomiga ko'ra, birinchi shartda jamoalar ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi qobiliyatini namoyish etgan holda, sahnada To'maris siymosini

gavdalantirgan bo'lsa, ikkinchi shartda AK-74 avtomatidan amaliy o'tish mashqini bajardi. Shuningdek, ular tanlov davomida yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish, bemorga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, belgilangan masofalarga estafeta yugurish, erkin uslubda 60 metr masofaga suzish hamda dala sharoitida mazali taom tayyorlash bo'yicha ham mahoratlarini namoyish etishdi.

Qizg'in bahs-munozaralarga boy o'tgan musobaqada Toshkent harbiy okrugi jamoasi faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritib, g'oliblik sharafiga erishdi.

Ta'lim

HARBIY SOHAGA YO'NALTIRADI

Bugun yurtimizda yoshlar o'rtasida harbiy kasb nufuzi ortib bormoqda. Bunda Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bilan bir qatorda ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining samarali o'qitilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, sohada erishilgan natijalarni yana ham mustahkamlash, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida Sirdaryo viloyati mudofaa

ishlari boshqarmasi tomonidan ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xovos tumanidagi 31-umumta'lim maktabida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv sinfining foydalanishga topshirilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.



Yangi o'quv sinfidagi o'quvchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha yetarlicha ta'lim olishlari uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida, yoshlarning harbiy kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Moddiy-texnik bazasining zarur o'quv va ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanganligi o'qituvchiga ham ko'mak beradi. Bu esa o'qitish sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan yangi o'quv sinfi bugungi kun talablariga javob bera oladi.

Sinfdagi ilk dars "Vatan tayanchi" otryadiga a'zo bo'lgan maktabning yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida bo'ldi. Dars samimiy ruhda o'tdi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot davomida yoshlar o'z orzu-maqсадlari, kelajak rejalari bilan o'rtoqlashdi. Kimdir shifokor, kimdir agronom, yana kimdir ichki ishlar organi xodimi bo'lmoqchi ekanligini aytdi. Quvonarlisi, ko'pchilik yigitlar harbiy bo'lish istagida ekan. O'qituvchi Islom Xoliqulov yoshlarning fikrlarini tinglar ekan, inson qaysi kasbni tanlamasin, unda yuksalish uchun avvalo o'qish, bilim olish zarurligini uqtirib, bu yo'lda intilish va ishtiyoqning ham ahamiyati katta ekanligini ta'kidladi. Ayniqsa, hayotini harbiy soha bilan bog'lamoqchi bo'lgan yoshlar uchun nafaqat bilim, balki kuchli jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish zarurligini aytib o'tdi.

Qizg'in savol-javoblarga boy tarzda o'tgan dars davomida boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha ilk ko'nikmalar ham berildi.

Bunyodkorlik



BINO

FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Sirdaryo tumanida safarbarlik chaqiruv rezervi batalyoni binosi qayta rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Mohir quruvchilarimizning bunyodkorlik salohiyatini o'zida mujassam etgan ushbu maskan Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning, o'zgarish va yangilanishlarning in'ikosi sifatida e'tirofga sazovor.



Eshikdan kirishingizdanoq bahridilingiz ochiladigan bino ichkarisi chiroyli ko'rinishga ega. Eng asosiysi, zamon talablariga to'liq javob beradi. Zarur o'quv qurollari va ko'rgazmali vositalar bilan jihozlangan keng va yorug' o'quv sinflari harbiy xizmatchilarning sifatli ta'lim olishi uchun xizmat qiladi. Yotoqxona, askarlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun xizmat qiladigan kutubxona, kichik poligon va sport

maydonchasi haqida ham shunday iliq fikrlarni aytish mumkin. Yaratilgan bunday sharoit va qulaylikdan, albatta, harbiylar ham mamnun.

Eng muhimi, harbiy qism va muassasalarning yildan yilga zamonaviy qiyofa aks etayotgani hukumatimizning harbiy xizmatchilarga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori va g'amxo'rligining yorqin ifodasi ekanligi ko'ngillarni sururga to'ldiradi.

Bellashuv



TOSHKENTLIK YOSHLAR G'OLIB

Joriy yilning 25-may kuni Mudofaa va Sportni rivojlantirish vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida harbiy xizmatchilar va yoshlar o'rtasida "Milliy kurash" va "Tosh ko'tarish" sport turlari bo'yicha "Mudofaa vaziri kubogi" musobaqalariga start berilgan edi.

Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish maqsadida tashkil etilgan bellashuvda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 400 mingga yaqin havaskor polvonlar ishtirok etdi.

Yoshlar o'rtasida to'rt bosqichda va to'rt vazn toifasida o'tkazilgan musobaqalar dastlab mahallalarda, keyin tuman va shaharda hamda viloyatlarda o'tkazildi.

Nihoyat, Mudofaa vazirligi sport markazida musobaqaning respublika

bosqichi bo'lib o'tdi. Unda turli vazn toifasida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgan eng kuchli polvonlar o'zaro kuch sinashdi.

Bellashuvlar shiddatli kechdi. Unda barcha ishtirokchilar g'oliblik uchun astoydil kurashdi. Ular bu borada

bor mahorat va chapdastliklarini ishga soldilar. G'oliblik esa eng kuchlilarga nasib etdi. Ya'ni yakuniy natijalarga ko'ra, toshkentlik yoshlar umumjamo'a hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritib, shohsupaga chiqishdi.



Keling, kitob o'qiymiz!

«БОЛАЛАРИМИЗ БИЛАН ТОРТИШМАЙЛИК»

«Уйингизга ўзининг миттигина бўйи, миттигина қўллари ва оёқлари билан келган бу кичкина одам кун тартибингизни тубдан ўзгартириб юборади. Лекин ваҳимага ўрин йўқ! Ким билади дейсиз, балки у ҳаётингизни янада гўзаллаштирар».



пайтларда танлаган адабиётларимиз унчалик ҳам ҳайрон қолдирмайди, деб ўйлайман. Чунки худди мен каби улар ҳам ижтимоий тармоқларни кузатиб боришларига ишонаман. Мен учун мактаб, муаллимлар мавзуси ҳар доим қадри, кўнглимга яқин бўлган. Оиламизнинг тўнғичи, Шаҳодат опам (Охиратлари обод бўлсин) муаллима эдилар. Ҳаёти давомида бирор ўқувчига қўл кўтармаган эканлар. Уларни сўнги йўлга кузатиш учун одамлар дарё каби оқиб, кўчаларни тўлдирди... Юмшоқфеъл, ҳаммадан фазилат топадиган, сабр-қаноатли, покдомон муаллимасига эл сўнги бор ўз эҳтиромини шу тариқа билдирди.

Ўқитувчи бўлиш осон эмас!

...Ўсмир қиз столлар оша сакраб муаллимасини уриб, тепкилай бошлади. Мактабда. Ўқувчи ва ўқитувчилар кўз ўнгида.

Ҳа, бу айни кунларимизда юз берди. Уларни муҳокама қилишдан йироқмиз, ким ҳақ, ким ноҳақлиги ҳақида қозилик қилиш вазифамиз эмас. Энг ёмони, шу ҳолатнинг юз бергани. Демак, тарбиянинг қаери-дадир оқсаш бор! Ўқитувчиларни қанчалик ҳурмат қилсам-да, барчасини мукамал, етук маърифатчилар дея олмайман. Аммо ўқитувчи ва ўқувчининг ўз ўрни бор, улар ўртасида ўзаро ҳурмат деган кўнгилдан келувчи парда бор.

Ижтимоий тармоқларда тинимсиз айланаётган айнан ана шу ачинарли воқеа яна тарбия мавзусида китоблар тавсия қилишга ундади. Келинг, таълим беришни муаллимлар зиммасига олсин-да, биз ҳам ўз бурчимизни бажариб, фарзандларимизга гўзал тарбия берайлик. Тарбияни ҳам уларга юкламайлик. Болалар биз, ота-оналарнинг кўзгуси, меваси, асли.

Бугун ота-оналар учун тарбия бобида кўмакчи бўла оладиган адабиётлар етарли даражада. Ҳар биримиз ҳам ўғил-қизларимиз билан мураккаб ҳолатларни бошдан кечирганмиз. Бусиз мумкин ҳам эмас. Ёнингизда яна бир инсон вояга етаяпти, унинг ўзига яраша талаб-истаклари, қизиқишлари, баъзан исёнлари бор. Қандай йўл тутиш керак?

Хадича Кубро Тонгарнинг 0 дан 18 ёшга қадар бўлган фарзандлар билан муносабатларга бағишланган «Болаларимиз билан тортишмайлик» китоби сизга яхши ёрдамчи бўла олишига ишонамиз. Китобни Абдурӯд Тилавов ўзбек адабий тилига маҳорат билан чевирган.

Ўқиймиз: «Гарчи баъзан «Нима бўпти? Ҳар бир она ўз фарзандини

барибир тушунади...» ёки «Мен ўзимни тушунтириш учун энди китоб ўқийманми? Ҳис туйғуларимни англата оламан, Худога шукр» деб ўйлаётган бўлса-да, турли воқеалар асосида «ёмон ҳислар» эмас, «ёмон ифодаланган ҳислар» ташкил қилиниши айтилмоқда ва боламизни хафа қиладиган нарса бизнинг ҳис-туйғуларимиз эмас, балки биз ҳис қилаётганларимизни уларга ҳис қилдиришнинг нотўғри шаклидир. Чунки кечаси кўрқиб ёнимизга келган боламизга «Нега кўрқасан? Чақалоқмисан?!» дейиш билан «Қоронғида нарсалар сенга бошқача кўринган, шекилли, бу кечаси тунги чироқни ёқишга нима дейсан?» дейиш ўртасида осмон билан ерча фарқ бор».

Нима учун бу китобни тавсия қил-япмиз? Эндигина юришни бошлаган гўдагингиз атрофидаги оламни ўзи мустақил ўрганишни бошлайди. Бу ўрганиш – ағдарилган гултувак, гул япроқларини битталаб узиш, сув тўкиш, энг қиммат чинни идишингизни синдириш, розетка тешиқларига митти бармоқларини тикишидир.

Ўқиймиз: «Ҳеч нарсани фарзандимдан афзал кўрмаганман. «Ҳар бир она шундай бўлади», деманг. Синган буюм учун боласини хафа қила оладиган она, ўзи сезмас-да, ҳаракатлари, муносабати билан боласига «Бу гулдон мен учун шунчалик қадрлики, синганлиги учун сени қийнапман!» хабарини беради. Яъни ҳеч бўлмаганда, бола буни идрок этади. Шу сабабли, мен синган, парчаланган нарсани деб (ёки ўғлимнинг гиламга тасодифан(!) тўккан бир литр зайтун мойини деб) ортиқча муносабат билдирмасликка ҳаракат қилдим. Муҳими, фарзандимизга ҳеч қандай зарар етмасин, шундай эмасми?»

Муаллиф улғайишнинг учта олти йилини алоҳида таҳлил қиладилар. Жуда қизиқарли таҳлил, худди ўзингизни кўргандек бўласиз, хатоларингизни ҳам, ҳатто. «Бўйингни қара?! Намунча эпсизсан-ейй?!»

Йўқ, азиз ўқувчи, сизга мазаммат қилмоқчи эмасман, тан олиш оғир бўлса-да, бу ифодаларда ўз хатоларимни кўриб, ич-ичимдан хижолат тортяпман.

Ўқиймиз: «Тез ўсиб бораётган ёш ўспириннинг «болаларча» ақли ва ҳиссиётлар дунёси бор. Шунинг учун ўсмирлик даври тортишувлар ва зиддиятларга тўла. Ота-онаси унинг бўйига қараб, «Бўйинг меникидан узун, катта йигит (қиз) бўлиб қолдинг! Бир ишни эплай олмайсан», деб жаҳл қиладиган болалари аслида, ҳақиқатан

ҳам, бола! Унинг танаси ўсиб кетган бўлса-да, ғоялари, тасаввурлари, қарашлари ва қобилиятлари танаси каби ўсмаган...

Ўсмир ота-онаси ўйлагандек ишларни қила олмаганлиги, эътиборсизлиги, ҳеч нарсага эътибор бермаслиги учун эмас. Балки у номутаносиб ва тез ўсиш даврида бўлганлиги учун кўполдир. Ва бу мутлақо табиийдир!»

Қўл телефонларисиз ҳозир ҳаётимизни тасаввур қилиб бўлмайди. Доим телефонга термилиб ўтириш зарар эканлигини биламиз, болаларимизни бундан асрагимиз келади. Аммо ҳар доим ҳам уларни назорат қилиб бўлмайди. Китобнинг қиммати шундаки, бу ҳолатларда нима қилиш ва шахсий тажриба ўртоқлашилади.

Ўқиймиз: «Бизнинг болалигимизда мобиль телефон, смартфон, компьютер, планшет, интернет, вай-фай ёки бошқа нарсалар бормиди? Йўқ эди!

«Айни замонда ҳазрат Алининг қуйидаги ажойиб сўзларини эслаш фойдалидир: «Фарзандларингизни ўз замонингизга қараб эмас, балки улар туғилган замон шароитига қараб тарбияланг!»

«Онааа, уяли телефон бўлмаганида қандай яшадингиз?» деб сўрашади. «Унда бизни хаёл қилиб кўр!» дедим. Йўқ, деб ҳисоблаш, ман қилиш, доимий равишда «Тур, компьютердан бошингни кўтар!» дейиш орқали, боланинг руҳий ҳиссиётига зарар етказишни эмас, фарзандимизнинг ёшига қараб чегара қўйиш ва бунинг сабабини чиройли тилда тушунтиришни билишимиз керак».

Бу каби китоблардан келтирилган парчалар шунчаки эътиборингизни тортиш учун. Ўқиб, мулоҳаза қилганга нима етсин. Боланингизни қатъий тақиқлар, куч устунлиги билан ҳам гаджетлардан тортишингиз мумкин. Аммо бунинг ҳеч қандай фойдали томони йўқ ва норозилик, зиддиятларни кучайтиради холос.

Яна ота-оналар ва фарзандлар ўртасида улғайиш палласида пайдо бўладиган нозик саволлар бор. Бу саволлар аслида жуда табиий, аммо жуда нозик-да! Жавоб бермаслигингиз ҳам мумкин, ҳозир интернет ҳамма саволларга жавоб беради. Аммо иккинчисининг хавfli томони ҳам йўқ эмас. Китобда нима қилишимиз ва муаллифнинг шахсий тажрибаси баён қилинган. Бу уч фарзандни тарбиялаб, вояга етказётган ёзувчи-онанинг тажрибасидир!

Ҳузурли мутолаалар тилаги билан

Инобат ИБРОҲИМОВА,
«Vatanparvar»

OBUNA — 2023



“VATANPARVAR”
GAZETASI NASHR
KO‘RSATKICHI — 114

“O‘ZBEKISTON ARMIYASI”
JURNALI NASHR
KO‘RSATKICHI — 1 273

BIZ BILAN MUTOALAA ZAVQINI TUUVING

"Vatan bilan ulg'ayar shon-shavkatimiz!" tanloviga

"BOBURJON HAM VATAN UCHUN YARALGANMIDI?"

Jannatmakon yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritganiga tarixan qisqa vaqt – o'ttiz bir yil bo'lgan bo'lsa-da, shu davrda Vatanning ko'plab asl o'g'lonlari, xususan, mard, olijanob harbiylarimiz mustaqilligimizni asrab-avaylash, yurtimiz tinchligini ta'minlash, xalqimizning or-nomusini himoya qilish, yovuz bosqinchilarga qarshi kurashlarda o'z Vatanga sadoqatini va jasorat namunasini namoyon etib, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun aziz jonlarini fido qilishdi.

Ulardan biri 2000-yil iyul-avgust oylarida yurtimizning janubiy sarhadlari bo'lmish Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarining o'tish qiyin bo'lgan tog'li hududlarida yovuz niyatli terrorchi g'alamislarga qarshi mardonavor jangovar harakatlarni olib borgan, o'z xizmat vazifasini bajarishda mardlarcha halok bo'lgan leytenant G'aniyev Boburjon Abdulhamidovichdir. Boburjon akalari qatori otasining izidan borib, mashaqqatli, mas'uliyatli, sharaflilik kasb hisoblangan ofitserlik kasbini tanladi. 2000-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakultetini tamomlagach, Mudofaa vazirligining harbiy qismlaridan birida haqiqiy harbiy xizmatni boshladi.

2000-yil yoz oylarida Mudofaa vazirligiga yurtimizning janubiy hududlari, Surxondaryo viloyatining tog'li tumanlarida cho'ponlarning yo'qolganligi haqida ma'lumot kelib tushdi. Vaziyatni atroflicha o'rganish, ma'lumotlar

to'plash va tahlil qilish orqali mazkur hududda qurollangan noma'lum odamlar yurganligi va ular Vatanimizga g'arazli niyatda kirib kelganliklari ma'lum bo'ldi. Shu kuni podpolkovnik B. Abdullayev boshchiligidagi harbiy qism maxsus bo'linmasi tezkor harakat bilan ko'tarilib, Sariosiyo va Uzun tumanlariga yuborildi. Dastlabki uch kun vaziyatni o'rganish, atrofni kuzatish va qidiruv ishlarini olib borish bilan o'tdi.

To'rtinchi avgust tuni tinch o'tdi. Erta tongda Kishtut qishlog'i yaqinidagi tik qoya yonbag'ridagi archazor tomonda yigirmaga yaqin qurollangan jangari ko'rindi. Guruh kattasi bu haqda qo'mondonlik punktiga xabar berdi. Harbiy vertolyotlarning shiddatli hujumidan so'ng maydonni tozalash ishlari boshlandi. Leytenant Boburjon G'aniyev va shartnoma asosida xizmat qiluvchi katta serjant Ma'rufjon Rajabov oldingi qatorda tik qoya tomon yurdilar. Qoyaga chamasi 20-30 metrlik masofa

Qahramonlar hayotda uzoq yashamasligi mumkindir, ammo odamlarning hikoyalari abadiy yashaydilar.

Amit KALANTRI

qolganda jangarilar pistirmasidan otilgan o'q leytenant B. G'aniyev va katta serjant M. Rajabovni yaraladi. O'rtada otishma boshlandi. Jangchilarimiz shiddatli jangga kirib, bir necha dushmani yakson qildilar. Boburjon oyog'idan yaralanishiga qaramasdan, uncha katta bo'lmagan toshni pana qilib, dushman bilan jangni davom ettirdi va safdoshlariga chakalakzor orasida xavfsiz jangovar pozitsiyani egallashlari uchun yaqindan yordam berdi.

Boburjon yaralangan oyog'ini bog'lab atrofqa qaradi. O'rtidan qo'zg'alib, tibbiy yordam olish uchun ortga chekina, jangarilar halqa ichidan chiqib ketadi... U egallagan pozitsiya o'ta muhim nuqtada edi. Tezkor qaror qabul qildi. Jangarilarning bir qadam ham siljishiga yo'l bermaslik kerak. Yana qurolini ishga soldi. Afsus va nadomatlar bo'lsinki, yosh ofitser leytenant Bobur G'aniyev uchun bu jang oxirigisi bo'ldi...

Boburjonning munis onasi Munavvar aya aytganidek, u yosh bo'lmasin, umri zoye ketmadi. U bezorilik qilib ko'cha-ko'yidagi to'polonda o'lmadi. Aksincha, o'z hayotini muqaddas Vatani, zahmatkash xalqining himoyasi uchun fido qildi. Onaizorning o'g'lini so'nggi yo'lga kuzatish chog'idagi "O'g'limga bergan oq sutimdan roziman!", degan so'zlari barchaning qalbini larzaga soldi...



Bugun ham jahonda xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani, ayrim mintaqalarda qurolli to'qnashuvlar davom etib, tahlikali vaziyat saqlanib qolayotgani Yangi O'zbekistonimizning yanada barqaror odimlashiga tahdid solmasdan qolmaydi, albatta. Bularning barchasi oldimizda paydo bo'layotgan tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga doimo tayyor bo'lishni talab etadi. Buning uchun yaqin o'tmishda el-yurtimiz boshidan kechirgan mash'um va qonli voqealardan tegishli xulosalar chiqarishimiz, xalqimizning tinch-totuv, osuda va farovon hayot kechirishi uchun aziz jonlarini fido qilgan mard o'g'lonlarimiz xotirasini doimo yodda tutishimiz lozim.

Podpolkovnik
Bahrom MIRZAAKBAROV,
CHOTQMBY o'qituvchisi

TOPGAN SO'ZIM, YO'QOTGAN SO'ZIM

So'zlarni cheksiz, chegarasiz sahralar, baland tog'lar, dengiz-u o'rmonlar osha uzoq safarga chiqqan jahongashta qo'shinga qiyoslagim keladi. Ammo bu qo'shin jangchilarining qo'lida qurol yo'q. Qon to'kmay, urush qilmay millatlarga, elatlarga xizmat qiladi, ularning ko'ngil sarhadlarini egallaydi. Har birining o'z qismati, uzoq tarixi bor. Yurish asrlar, ming yillarga cho'zilgani uchun ham biz ko'pincha muzaffar jangchilarni tanimaymiz, taniy olmaymiz.

Bilganlarimiz esa uncha ko'p emas. Arabcha "al-jabr" so'zi lotin, nemis, polyak, rus tillari orqali "algebra"ga aylanib qolgan, sondan ildiz chiqarish yo'llari, tartibi bo'lmish "algoritm", "algorifm" atamasi buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiyning nomiga qo'yilgani barchamizga ma'lum. Lekin "admiral", "jupan", "ulan" so'zlari qayerdan paydo bo'lgan ekan? Keling, yaxshisi, bir chekkadan boshlay qolaylik. "Admiral" so'zi biz o'ylagandek fransuzcha yoki inglizcha emas, balki golland tili orqali ruscha atamaga aylanib qolgan. Aslida arab tilidan olingan bu kalima "amir al-bahr" – dengiz hokimi, qo'mondoni degan ma'noni anglatadi. "Arsenal", "azimut", "avariya" ham arabcha "dar al-sana" (*aslahaxona, ustaxona*), "as-sumut" (*yo'llar*), "a'var" (*zarar, talafot, buzilish*) kabi atamalarning bir tildan ikkinchi, uchinchi tilga o'tib, o'zgarib ketgan shaklidir. Fransuzchadan italyanchaga, undan rus tiliga o'tgan "gvardiya" so'zi ham avvaliga hukmdor yoki lashkarboshilarning shaxsiy soqchilariga, keyinroq esa saralangan, chiniqqan, eng yaxshi qo'shinga nisbatan ishlatilgan. Ma'lumki, "boyar" Rossiyada hukmron sinf vakillariga, katta yer egalari beriladigan oliy unvon hisoblangan. Biroq

bu atama qadimgi turkiy tildagi "boy er", "boy odam" so'zining aynan o'zi ekanligi hech xayolimizga kelmeydi. Shu singari "baraban", kazak qo'shinlari boshlig'iga nisbatan ishlatiladigan "ataman" so'zlari ham ota-bobolarimizga yaxshi tanish, qadrdon bo'lgan. Forschadagi "balabang" (*qattiq ovoz, qichqiriq*) kalimasi turk tili orqali ruscha barabanga aylangan. Qolaversa, o'zbekchada ham qadim-qadimdan shu kungacha "badabang" so'zi ishlatib kelinmoqda. "Ataman"ga kelsak, bu turkiy tildagi ulug' ota, bobo, aniqrog'i, "ota" va "man" otlari qo'shilib, ma'no kuchaytiruvchi "katta", "ulkan" mazmunini ifodalovchi so'zning yangicha shaklidir, xolos.

"Yepanchi". Bu so'z ham bizga juda tanish. O'ylang! Ha, ha, yangilishmadingiz! "Yopinchiq" degani-da! Qariyb XVIII asr oxirigacha rus armiyasida ofitserlar, askarlar shinel o'rniqiga yoqa va astarlik, bo'yin yonida bitta tugmasi bor movut yopinchiq, ya'ni "yepanchi" kiyib yurishgan. Butun Yevropada mashhur bo'lgan "ulan" kalimasi ham turkiy xalqlarda, mo'g'ul tilida ming yillardan beri ishlatib kelinadi. Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon 1392-yili Polsha qiroli Yagaylaga yuborgan

yorlig'ida "ulan" so'zi "xonning oila a'zolari, hukmdor tabaqa vakillari" ma'nosida "bek" so'zi bilan birga qo'llanilgan. XIII–XIV asrlarda ulanlar mo'g'ul-totor qo'shinlari tarkibiga kiritilgan, jangovar ot minib, uchiga bayroq taqilgan uzun nayzalar bilan qurollanganlar. XVI asrda esa otliq ulan qo'shinlari, aniqrog'i "o'g'lon qo'shinlari" Litva va Polshada o'sha yoqlarga ko'chib borgan turkiy xalqlardan tashkil etildi. XVIII asrda Avstriya va Prussiyada, XIX asr boshlarida Fransiyada paydo bo'lgan ulan muntazam qismlari otliq qo'shinlarning muhim elementiga aylangan. Hatto vengerlarning gusariga o'xshab, ulanlar polyaklarning milliy otliq qo'shini hisoblana boshlandi. Ulanlar, ayniqsa, Napoleon urushlari davrida o'ta muhim ahamiyat kasb etdi. Imperator gvardiyasi tarkibidagi to'rtta yengil otliq ulan qismlaridagi olti yarim ming jangchining ko'pchiligi polyaklardan iborat edi. Fransuz armiyasida bundan tashqari yana to'qqizta ulan qismlari tuzilgan bo'lib, ular janggohlardagi eng qizg'in nuqtalarga tashlanardi. Rossiyada esa ilk bora 1803-yilda ulan yengil otliq qismlari tashkil etilib, o'tgan asr boshlarida ularning soni yigirmataga yetgan edi.

Yuz yillardan beri rus tilida ishlatib kelinayotgan "kazak" so'zi ham o'zimizdan olingan. Manbalarga qaraganda, turkiy tillarda "erkin, ozod odam", "qochoq, qaroqchi", "mulkdorning harbiy xizmatchisi" kabi ma'nolarda ishlatilgan "qozoq" so'zi avvaliga ruschada "ishchi, yollanma ishchi", keyin esa davlat chegaralarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga, qo'shin turiga, aholi guruhiga nisbatan

qo'llanilgan. Umri ot ustida o'tgan yovqur ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan yana bir so'z bor edi. Ya'ni o'zbek qadimda teridan chiroyli qilib tikilgan, jangchilar beliga osib yuradigan o'q-yoyning g'ilofini "sadoq" degan. Ana shu so'z ham uch asrdan ziyod, XVII asr oxirigacha rus armiyasida "saadak" goho "sagaydak" degan shaklda ishlatildi.

Shu o'rinda yana bir nechta so'zni keltirib o'tishni istardim. Ukraina, Rossiya kazak qo'shinlarida XV–XVIII asrlar davomida "jupan", "chekmen" kabi harbiy kiyimlar bo'lgan. Bu aslida "jubba" (*turkchada, Xorazm shevasida kiyim turi ma'nosida hamon ishlatib kelinmoqda*), "chakmon" kabi so'zlarimizning bir ko'rinishidir. "Karaul", "yesaul", "kinjal" ham o'zimizning o'zbekona "qorovul", "yasovul", "xanjar" atamalarining yangi muhitda emin-erkin yashaganiga, yashayotganiga yaqqol dalolatdir. Ha, aytgancha "argamak" so'zi esdan chiqay debdi. To'ppa-to'g'ri! O'sha o'zimizning "arg'umoq" imizda! XVI–XVII asrlarda zotdor arab otlari Rossiyada ana shunday nomlangan. 6-8 so'mga sotiladigan oddiy otlarga ega bo'lish orzuga aylangan bir zamonda "argamak"lar 50-200 so'mga baholanib, katta boylikka aylangan. Shuning uchun ham ulami minish podsho, boyar, knyazlargagina nasib etgan.

Xullas, bunday misollarni o'nlab, yuzlab keltirish mumkin. Qadim-qadim zamonlardayoq Sharq madaniyatiga, turkiy askarlarning harbiy san'atiga tan bergan millat, xalq borki, ulardan o'rnak olishga, ularga o'xshab kiyinishga, qurollanishga, so'zlashishga harakat qilishgan. Buni isbotlab, tortishib o'tirishga aslo hojat yo'q. Zero, dunyoning to'rt tomoniga sochilib ketgan, tarixiy asarlarda muhrlangan o'zbekona kalimalar har qanday bahsga chek qo'yadi.

Azimbek USMON



“ASKARLAR – O‘G‘LIM, UKAM KABI AZIZ!”

Maqolamiz qahramoni II darajali serjant Ma'murjon Abdurazzoqov ayni paytda Shimoli-g'arbiy harbiy okrugdagi harbiy qismlarning birida o'quv-jangovar qurol-aslaha va texnika guruhi katta yo'riqchisi-mashina komandiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. O'z sohasining bilimdoni bo'lgan bu insonning 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kunida “Malakali ustoz” ko'krak nishoni bilan taqdirlangani uning murabbiylik qobiliyatiga berilgan munosib baho bo'ldi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalaridan ortib, suhbatlashishga fursati bo'lavermagani bois Ma'murjon aka bilan parkda, ayni mashg'ulot jarayonida gaplashishga to'g'ri keldi.



– Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloqda, oddiy ishchi oilasida dunyoga kelganman, – deydi qahramonimiz. – Oilamizda doim to'kinlik bo'lmagan, lekin baxtli oilalar qatorida edik. To'rt o'g'ilning to'ng'ichiman. Bolalikdan etimiz mehnat bilan qotdi. Otamga yordam beraman, deb bog'bonning bog'ida ishladim, fermerning dalasiga chopiqqa chiqdim, bo'sh vaqt topdim deguncha, onamning qo'sh qanotiga aylanib, non uchun xamir qordim, tandirga o't yoqdim.

Maktabda o'qib yurgan kezarimizda oynayi jahon orqali “Sardor” filmi efiga uzatilardi. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, harbiy sohaga qiziqishimda shu film juda kuchli motivatsiya bergan. Shuning uchun armiyaga chaqiruv xati kelganda, ich-ichimdan sevinganman. Harbiy xizmatdan qaytib kelgach, qishloqda ikki yil ustachilik bilan shug'ullanib yurdim. O'shanda “Bolalikdagi orzular nahot endi armon bo'lib qolsa”, deb ko'p o'ylardim. Yo'q, bunday bo'lishi mumkinmas edi. Axir men kelajagimni shu sohada davom ettiraman, deb niyat qilganman-ku. Bir kuni qat'iy qarorga keldim: Qurolli Kuchlar safida shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni davom ettiraman! Bir kuni onamga “Hayotimni harbiy soha bilan bog'lamoqchiman. Qarshimasmisiz, qiyinalib qolmaysizmi?” desam ular boshimni silagancha: “Bolam, askar bo'lganingda bir quvongandim. Vatanga kerakli inson bo'lish, uning tinchligini himoya qilish sharaf-ku! Nega men seni shunday sharaflig' yo'ldan

qaytarayin?!” deb ko'ziga yosh oldilar. O'shanda menga oq yo'l tilab, duo qildilar...

Shu payt yonimizga bir askar yigit kelib qoldi. Harbiycha salomlashuvdan so'ng Ma'murjon aka o'g'liga gapirganday:

– Shahriyor, bolalar bilan texnikaning sozligini tekshirib turinglar. Birozdan so'ng mashg'ulotlarni davom ettiramiz, – dedi.

Armiya hayotida askarni ismi bilan emas, familiyasi bilan chaqirilishini eshitgandim. Askarni erkalab, ismi bilan murojaat etganiga hayron qarab turganimni sezgan suhbatdoshim kulib:

– Shu kungacha juda ko'p ustozlardan harbiy soha sir-asrorlarini o'rgandim. Ya'ni hayotimda juda ko'p ustozlar bo'ldi. Birovi katta, birovi kichik. Hatto o'zimdanda o'n-o'n besh yosh kichik harbiy xizmatchilar texnikani o'rgatdi, ustozlik qildi. Lekin hech biridan “serjant Abdurazzoqov” degan so'zni eshitmadim. Shunchalik inoq, qadrdon bo'lib ketganimizdan ismimni aytib chaqirishardi. Shunda amin bo'lganmanki, hurmat va izzat jamoada do'stona muhitni shakllantiradi. Bu ishning unumdorligiga ham ta'sir qiladi. Bugun men ham ustozlarimdek ish tutayman. Askarlar – o'g'lim, ukam kabi aziz, deb bilaman. Ularni yaqin insonimdek qabul qilsam, ular ham hurmatga yarasha javob qaytaradi, natija ko'rsatadi.

– Natijadan so'z ochdingiz. Hayotda erishgan yutuqlaringiz haqida ham so'zlab bering.

– El-yurtimning tinchligi va osoyishtaligini saqlashdek muqaddas

va mas'uliyatli ishga hissam qo'shilayotganidan ko'nglim doim g'ururga to'ladi. Shuning uchun orzum ushalib, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotganimni hayotdagi eng katta yutug'im deb bilaman. Ko'plab shogirdlar yetishtirdim. Xalqaro armiya o'yinlarining “Tank biatloni” musobaqasida harbiy qismimizdan harbiylar ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Shogirdlarim shunday quvonchli damlarda menga qo'ng'iroq qilib, “Rahmat, ustoz! Sizning saboqlaringiz mevasi bu!” deganlarining o'zi men uchun yana bir ulkan yutuq. Bilasizmi, inson doim mehnat qilsa, o'rgansa, izlansa, yangi-yangi yutuq va muvaffaqiyatlar peshvoz chiqaveradi.

– Qanday kitoblar o'qiyasiz?

– Yaqinda Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” nomli kitobini o'qib chiqdim. Kitob kechagi kundanda so'z ochib, bugungi kun uchun mulohaza qilishga chorlaydi. Judayam ta'sirli va hayotiy badiiy asar ekan. So'nggi yillarda tank texnikasini o'rganishim uchun juda ko'p ilmiy adabiyotlarni o'qishimga to'g'ri keldi. Ijtimoiy tarmoqlarda yangi texnikalar haqidagi eng so'nggi yangiliklardan boxabarman. Bu mening xizmat faoliyatim uchun juda muhim. Kitob mutolaasidan tashqari yana har doim radio tinglayman. Chunki to'lqinlarda badiiy adabiyotlar haqidagi eshittirishlar ham ko'p bo'ladi, tarbiyaviy ahamiyatga doir rivoyatlarni jon qulog'im bilan eshitaman. O'g'illarimning ham kitobga, mutolaaga qiziqishini oshirish maqsadida harbiy qism kutubxonasidan rasmiy ertak kitoblarni olib borib beraman.

Shimoliy sarhadlarda ancha yillardan buyon xizmat faoliyatini olib borayotgan Ma'murjon aka bilan suhbatimiz ancha qiziqarli kechdi. Kunning sovug'ida yorqin xotiralarini yodga olgan suhbatdoshimning ibratli hayoti, xizmat faoliyati haqiqatan ham o'mak bo'lishga arzigulik.

Men ikkinchi darajali serjant Ma'murjon Abdurazzoqov bilan xayrlashib, parkdan

uzoqlashdim. U esa askarlar bilan mashg'ulotning qolgan qismini davom ettirishga kirishdi: “Xo'o'sh, vatanparvarlarim! Demak, davom etamiz. Jangovar shaylik har bir askar uchun muhim hisoblanib, asosiy maqsadimiz, jonajon Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishdir...”

Darvoqe, men shu kuni telefon orqali qahramonimizning turmush o'rtog'i Sayyora Abdurazzoqova bilan ham suhbatlashdim. “Malakali ustoz degan nomga loyiq inson oilada qanday ota?” degan savolimga u quyidagicha javob berdi:

– Oilaparvar va talabchan ota. Xizmatdan charchab kelgan bo'lsalar-da, farzandlarimiz uchun vaqt topib, ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Chunki “farzandlarimizni yurtimizga metin qalqondek ustun bo'la oladigan insonlar qilib tarbiyalashimiz lozim”, deyдилar doim. Turmush o'rtog'im yaqinlariga ham mehribon va oqibatli inson. Farzandlarim dadasidagi ezgu fazilatlarini, halollikni ko'rib ulg'ayayotganidan quvonaman.

Shohista ABDURAHMONOVA
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

KURAGI YERGA TEGMAGAN PAHLAVON

Toshkent viloyatining Piskent tumani ko'plab jonkuyar, fidoyi va dongdor dehqonlari, shu bilan birga kuragi yerga tegmagan pahlavonlari bilan ham mashhur. Ulardan biri Hakimpolvon Qodirov haqida tuman ahli orasida hozir ham turli hikoyalar aytiladi.

Hakimpolvon Qodirov 1907-yil 25-yanvar kuni Kultepa qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. U 7 yoshida onasidan, 13 yoshida otasidan ayrilib, yetim qolgani uchun hayotning achchiq-chuchuklari bilan juda erta tanishadi.

Polvonning barcha ezgu va ibratli ishlari e'zozlanib, bugun tumanda kattagina hududni egallagan fermer xo'jaliklar uyushmasiga uning nomi berilgan. Hakimpolvonni salobatli, ulkan gavdali, jismonan kuchli va baquvvat inson bo'lgan, deyishadi. U o'zbek belbog'li kurashining nomdor polvoni edi. Xalq sayillarida tashkil qilingan

kurashlarda dong'i ketgan polvonlar bilan bellashgan, ammo kuragi biror marta yerga tegmagan.

1929-yilda Kultepa qishlog'ida “Oydin” kolxozi tuzilib, Hakim aka ham shu tuzilgan qishloq xo'jaligi arteliga a'zo bo'ladi. Mehnatsevar yigit tezda ko'pchilik hurmatini qozonadi, zveno boshlig'i qilib saylashadi. 1930-yili hosildorlik gektaridan 9 sentnerdan ko'tarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi yillarda 20 sentnerga yetadi.

Urush boshlanganida Hakimpolvon ham el qatori frontga jo'naydi. Qaqshatqich janglarda snayperlik miltig'i bilan jasorat namunalari ko'rsatadi. 1943-yili yarador

bo'lib, Toshkent gospitalida davolanadi. Olti oy davom etgan muolajalardan keyin harbiy xizmatga yaroqsiz, deya qishlog'iga qaytariladi.

Urush yillarida front ortida fidoyilarcha ter to'kkan polvon Toshkent kanali qazilishidagi umumxalq hasharida faol ishtirok etadi. O'shanda u yelkaga osiladigan maxsus yog'och zambilda (*o'sha paytda bu qurilmani “samolyot” deb atashgan*) norma qilib qo'yilgan 4 kubometr o'rniga har kuni 50 kubometr tuproq tashib, o'ziga xos rekord o'rnatgan edi. Bu jonbozligi uchun polvonn pul mukofoti va velosiped bilan taqdirlaydilar.

1944-yilda o'zi boshchilik qilayotgan brigada a'zolari bilan dastlab 20 gektar yerga chigit qadaydi. Yildan yilga to'qayzorlarni o'zlashtirish, yangi yerlar ochish hisobiga yer maydonini sekin-

asta kengaytirib bordi. Bu orada urush ham tugab, yigitlar ona yurtlariga qaytib kela boshlashadi. Ularni safiga olgan polvon belini mahkam bog'laydi, paxta maydonini 100 gektarga yetkazadi. Botqoq yerlarni quritish uchun drenaj zovurlarini qaziydi. Hakimpolvon Qodirov yetakchiligidagi brigada 1956-yilga kelib, gektaridan 50 sentnerdan paxta hosili olishni boshlaydi. Mirishkor dehqonning mehnati qadrlanib, unga Mehnat Qahramoni unvoni beriladi.

1987-yil 27-sentabrda 80 yoshida vafot etgan Hakimpolvon Qodirov yurtini sevadigan haqiqiy mard o'g'lonlar qatorida hanuz yodga olinadi.

Gulnoza USMONOVA,
Qurolli Kuchlar davlat muzeyi
ilmiy xodimi

1-dekabr – Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni

VIRUSDAN EHTIYOT BO'LING!

Koronavirus pandemiyasi insoniyat uchun yuqumli kasalliklar xavfi doimo mavjudligini yana bir bor eslatib qo'ydi. Pandemiya davrida ham odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV) infeksiyasi bilan xastalanishi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki OIV infeksiyasini yuqtirgan odamda immun tizimining kuchsizlanib borishi, koronavirus infeksiyasining og'irroq kechishi va noxush holatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkinligi insonlarning xavotiriga asosli ravishda sabab bo'lmoqda.

OIV infeksiyasi nima uchun xavfli?

OIV infeksiyasining insoniyat uchun xavfliligining eng asosiy sababi – ushbu

kasallikning asosiy nishoni har bir davlatning kelajagi, jismoniy va aqliy salohiyati, jamiyatning asosini tashkil etuvchi yoshlar ekanligidir. Hayotiy tajribasi kam bo'lgan yoshlarning OIV/OITS kasalligi haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi – ushbu kasallik bilan bog'liq og'ir asoratlarga olib kelishi, dunyo, shu jumladan, respublikamiz miqyosida kasallikning tez sur'atlarda tarqalishiga zamin yaratadi. Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy tarkibining ham asosiy qismini yoshlar tashkil etishi oldimizdagi mas'uliyatni yanada oshiradi.

Sayyoramizda 39 millionga yaqin inson OIV/OITSdan aziyat chekmoqda! Ular orasida ayollar va bolalar ham borligi yanada ayanchlidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNAIDS tashkilotining (BMT OITSga qarshi kurashish dasturi) ma'lumotlariga ko'ra, har soatda dunyoda 308 nafar va bir kunda 7 400 ga yaqin kishi OIV infeksiyasini yuqtirishi hamda 5 500 nafar odam ushbu kasallikdan vafot etishi bayon etildi.

OIV va OITS tushunchalari

OIV infeksiyasi – asosan inson organizmiga virus tushishi, ammo kasallik alomatlari hali namoyon bo'lmagan davr. Inson virus tashuvchi hisoblanadi.

OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi, ya'ni kasallikning so'nggi bosqichi. Bu davrda inson organizmi har qanday kasallikka bardosh berish xususiyatini yo'qotadi.

OIVning OITSdan farqi nimada?

OIV infeksiyasida odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytaradi, lekin kasallik alomatlari deyarli bo'lmaydi. U faqat laboratoriya tekshiruvda aniqlanadi. Virus bilan organizm o'rtasidagi kurash uzoq davom etadi va virusning g'alabasi bilan yakunlanadi. Virusning organizm ustidan g'alabasi boshlangandan keyin OITS davri boshlangan bo'ladi. Infeksiya yuqqan dastlabki davrlarda odam o'zini sog'lom his etishi, bunday holat hech qanday alomatlarisiz 8-10 yilgacha cho'zilishi mumkin.

Virusning yuqish yo'llari

– Qon orqali (*tomir orqali gilyovand modda oluvchilarda umumiy shprits va igna ishlatganda; teri qoplami butunligini buzib bajariladigan muolajalar orqali; virus bilan zararlangan qon quyilganida; sterilanmagan tibbiyot anjomlari ishlatilganda*);

– jinsiy aloqa orqali,
– infeksiya yuqqan onadan homilaga.

Infeksiya yuqmasligi uchun...

Eng avvalo, odob-axloq chegarasidan chiqmaslik zarur. Bundan tashqari, quyidagilarga amal qilish kerak:

– bir martalik ishlatiladigan shprits va ignadan foydalanish;
– sterilangan tibbiyot asbob-anjomlaridan foydalanish;
– quyiladigan donor qonini doimo OIVga tekshirish;
– o'z turmush o'rtog'iga sodiq qolish, jinsiy hamrohning doimiy bo'lishi;
– teri qoplamlariga ishlov berishda (*manikyur, pedikyur, yuz terisini tozalash*

va boshqa kosmetik xizmatlar) sterilangan yoki bir martalik ishlatiladigan asbob-uskunalaridan foydalanish;

– sataroshxonada bir martalik ishlatiladigan ustalaridan foydalanish;

– shaxsiy (*individual*) tish yuvish cho'tkasi va soqol olish ustarasidan foydalanish;

– o'g'il bolalarni xatna qildirishni mutaxassis shifokor tomonidan shifoxonada amalga oshirish;

– igna bilan davolanish muolajalarini olayotganda ignaning sterilizatsiyadan o'tkazilganligiga to'liq ishonch hosil qilish;

– umumiy ovqatlanish obyektlarida (*restoran, choyxona, oshxona, qahvaxona va to'yxona*) har biri alohida o'ralgan (*qadoqlangan*) tish kovlagichlardan faqat bir marta foydalanish.

Hozirgi kungacha OIV/OITS kasalligining oldini oladigan vaksina ishlab chiqilmagan. Shuning uchun shaxsiy profilaktikaning ahamiyati katta. Mudofaa vazirligi tibbiyot xodimlari tomonidan ham harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini OIV/OITSdan himoyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va kasallik diagnostikasi borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. OIV infeksiyasi profilaktikasi va davolash ishlarini olib borish uchun Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi, Markaziy harbiy klinik hospitali, Respublika OITSga qarshi kurash markazi, uning hududiy tuzilmalari, diagnostika laboratoriyalari, ishonch xonalari va do'stona maslahat xonalari ham faoliyat yuritmoqda. Bunday shifo maskanlarining aksariyati aholi qatnashi va maslahat olishi uchun qulay hududda joylashgan.

**Tibbiy xizmat mayori
I. ABDUKARIMOV,
Mudofaa vazirligi**

**Sanitariya-epidemiologiya nazorati
markazi bo'linmasi boshlig'i**

Huquqiy savodxonlik

OILANG TINCH – XIZMAT BARDAVOM

Harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida Qarshi harbiy prokuraturasi tomonidan Nuriston garnizonidagi harbiy qismlarning birida "Oilang tinch – yurt farovon, xizmat bardavom" mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida Qarshi harbiy prokuraturasi prokuror-tergov xodimi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yetakchi mutaxassisi va harbiy qism mas'ullari tomonidan harbiy qism shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolari uchun zarur maslahat va tavsiyalar berildi.

Ma'ruzachilar oilada sog'lom muhitni shakllantirish, voyaga yetmagan farzandlar tarbiyasida ota-ona majburiyatlari, er-xotin

munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va ularning oldini olish masalalari, o'z joniga qasd qilish hamda shu kabi suitsidal holatlarning oldini olish chora-tadbirlari xususida so'z yuritdilar.

Shuningdek, tadbirda harbiy xizmatchining oilasi boshqalarga har tomonlama o'rnak bo'la oladigan ijobiy sifatlarga ega bo'lishi kerakligi alohida e'tirof etildi. Zero, oiladagi muammo nafaqat jamiyat, balki Qurolli Kuchlar tizimidagi birdamlik va jipslikka ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, harbiy xizmatchi xizmat faoliyatidagi kamchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

**Adliya kapitani Rustam SOBIROV,
Qarshi harbiy prokurorining katta
yordamchisi**

Yong'in xavfsizligi

ZARUR TUSHUNCHALAR BERILDI

Chirchiq garnizonida joylashgan harbiy qismlarning birida yong'in xavfsizligi oyligi munosabati bilan harbiy qism hududida hamda harbiy xizmatchilar yashash xonadonlarida favqulodda holatlar, is gazidan zaharlanishning oldini olish maqsadida garnizon yong'in nazorati inspeksiyasi mutaxassislari, Chirchiq shahri favqulodda vaziyatlar bo'limi, shahar gaz ta'minoti bo'limi, tibbiyot birlashmasi xodimlari ishtirokida ko'rgazmali amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Oylikning asosiy vazifasi harbiy qism, muassasa va harbiy shaharchalarda yong'in xavfsizligi choralari kuchaytirish, aholi, harbiy xizmatchilar orasida tushuntirish ishlarini keng ko'lamda olib borish, harbiy obyektlarni birlamchi o't o'chirish vositalari bilan ta'minlash va yong'iniga

qarshi suv ta'minoti manbalarini soz holga keltirish, yong'inlar sodir bo'lishining oldini olish etib belgilangan. Harbiy qismda o'tkazilgan tadbirda ko'zlangan asosiy maqsad uy-joy, korxonalar, tashkilot va muassasalarda yong'in xavfsizligiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish, aholining yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlash bilan bir qatorda davlat va jamoat mulkini tilsiz yovdan asrashdir.

Mashg'ulot davomida, shuningdek, elektr va gaz quurilmalaridan xavfsiz foydalanish, is gazidan zaharlanish va yong'inlarning oldini olish bo'yicha tushunchalar berildi.

**Kichik serjant J. TURDIYEV,
harbiy qism yong'in nazorati boshlig'i**

Olov – tilsiz yov

Ob-havoning keskin pasayishi oqibatida gaz ta'minotida uzilishlar, xonadonlarimizdagi gaz anjomlari hamda dudburonlarda turli nosozliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu, albatta, inson hayoti uchun xavflidir.

BIRDEK MAS'ULMIZ

Tabiiy gazning to'liq yonmasligi, gaz oqimining bexosdan uzilib qolishi, xona ichida gaz to'planib qolishi, gazni yoqib, qarovsiz qoldirish, isitish tizimlariga gazni ulashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida portlash va yong'in sodir bo'lishi hamda is gazlaridan zaharlanish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar sodir bo'lishi mumkin. Shuningdek, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan qo'l'bola, nstandart gaz jihozlaridan foydalanish, gaz tarmoqlariga rezina shlang orqali ulanish, nosoz holatdagi dudburonlarni ishlatish hamda xonadon ichida ochiq olovdan isitish maqsadida foydalanish holatlarining uchrab turishi insonlarning is gazi bilan zaharlanishiga hamda havo va gaz aralashmasi chaqnashi natijasida jabrlanishiga sabab bo'lmoqda.

Is gazidan zaharlanish uning havodagi konsentratsiyasi va ta'sir muddatiga bog'liq bo'ladi. Zaharlanish yengil, o'rta va og'ir darajalarda kuzatiladi. Bunday hollarda bosh aylanib, qattiq og'riydi, qayt qilish, hushdan ketish hamda nafas olish sekinlashadi. Ba'zan bu o'limga ham olib kelishi mumkin. Is gazi rangsiz, ta'amsiz, hidsiz zaharli gazdir. Is gazi tabiatda eng ko'p tarqalgan zaharlovchi gazlardan

biridir. U asosan ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'i mahsulotlarining to'liq yonmasligi sababli yuzaga keladi. Havo tarkibida 0,1 foiz is gazining bo'lishi o'lim holati uchun yetarli bo'ladi. Is gazi organizmga tushganda u qon tarkibidagi gemoglobin va kislorod tashuvchi eritrotsitlarni o'zaro bog'lab, kislorodning tana bo'yab harakatlanishini cheklaydi. Natijada inson hushini yo'qotadi. Noxush holatlarni paydo qiluvchi, ishtirokchi va jabr ko'ruvchi ham insonlarning o'zlari bo'layotganiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, yuzaga kelayotgan ayrim talafotlarda yosh bolalarning jabr ko'rayotgani va bolalar o'limining yuzaga kelayotgani aчинаrli holdir. Bu mudhish hollarning asosiy sababi – insonlarning xavfsizlik talablarini bilmasligi yoki ularga beparvo qarashida.

Hurmatli yurtdoshlar, tabiiy va suyultirilgan gazdan xavfsiz foydalanish uchun nafaqat mas'ul mutasaddilar, balki siz-u biz ham birdek mas'uldirmiz. Xavfsizlik qoidalariga rioya qiling. Ana shunda gazdan zaharlanish va baxtsiz holatlarning oldini olgan bo'lamiz.

**Podpolkovnik F. PARDAYEV,
Qarshi garnizoni yong'in nazorati
inspeksiyasi boshlig'i**

Vogely hikoyalar

Singlim bilan muzqaymoq yegani o'tlandik. Dam olish kuni o'zimiz uchun vaqt ajratganimizdan mamnunmiz. Negaki, ishchi ayollar borki, dam olish kunini oilasiga bag'ishlaydi. Ro'zg'or yumushlari, bozor-o'char degandek, xonadon muammosi bilan band bo'ladi. Xullas, ishlarimizni tinchitib, muzqaymoq bahonasida dam olishga imkon topganimiz yaxshi bo'ldi. Opa-singil birga o'tirib, suhbatlashamiz, dardlashamiz, sirlashamiz.

ARMON

Katta shahar, yo'llar odamlar bilan gavjum, hamma qayoqqadir shoshadi. Odamlar oqimi orasida qip-qizil atirgullardan katta guldasta ko'tarib olgan yigit e'tiborimizni tortdi. U yonginamizdan mamnun qiyofada o'tar ekan, beixtiyor quchog'ini to'ldirib turgan gullarga nigohimiz tushdi. Qizil atirgullarning o'rtasiga oq atirgullardan mo'tabar so'z muhrlangandi: ONAJONIMGA.

Bir-birimizga gap bermay kelayotgan opa-singillar jim qoldik. Ayni pallada ikkimizning ko'nglimizdan ham bir o'y, bir xil kechinma o'tmoqda edi. To'g'rirog'i, bir armon bosh ko'tarib, ko'zlarimizdan yosh bo'lib quyilishga shay turardi. Bir savol yuragimizga o'qdek qadalmog'da edi: "Onajonimizga biror marotaba gul sovg'a qilganmizmi?"

Onamiz gulni juda sevardi. Hovlimizni to'ldirib turgan gul-u rayhonlar

ularning qo'li bilan bunyod bo'lardi. Saksondan oshganlariga qaramay, gullar parvarishida tinib-tinchimasdi, chakkalarini rayhon bezab turardi. Agar ularga quchoqlarini to'ldirib gullar sovg'a qilganimizda bormi...

Onamizning tug'ilgan kuni hujjatlarda qayd etilmagan. Shu sabab tug'ilgan kunlarini o'tkazmaganmiz. Ammo har bir bayram va quvonchli kunlarda validamizni sovg'a-salomlar bilan

doimo siylab turardik. Ular qaysi taomni yoqtiradi, qaysi rangni xush ko'radi, qaysi bir so'zimizdan dillari yayraydi... Barchasiga e'tibor qaratishga harakat qilardik. Lekin ular sevgan gullarni taqdim etish...

Afsuski, endi bu armon yukidan qutulishga imkon yo'q, chunki bag'rimizda onamiz yo'q. Biz kechikdik, siz shoshiling.

“YURAK KASALI”



– Rahmonjon, nega qo'llaring ichi ko'kargan, ayniqsa kafting ko'm-ko'k? – nonushta payti Muxtasar opa o'g'lining qo'llariga hayrat bilan qaradi. – Yo kecha maktabingda biror narsa bo'yadingmi?

– Yo'-o'q, – qo'lini birinchi marta ko'rib turgandek kafting termildi yigitcha.

– Bo'yoq ishlatmagan bo'lsang, unda bu rang qayerdan keldi?

– Bilmadim... – qo'llaridan ko'zini uzmay, o'ychan javob qaytardi u.

– Ertalab yuz-qo'lingni yuvganingda nahot, shuni ko'rmagan bo'lsang?

– Ertalab qo'limda hech qanday rang yo'q edi, nazarimda.

– Biror joying og'rimayaptimi, ishqilib? Balki...

– Namuncha bolani so'roq qilding, choyini ichib olsin, – ona-bolaning suhbatiga aralashdi Shakarbek aka. – Nam qo'li bilan biror narsani ushlagan bo'lsa, rangi qolgandir. Yana ozgina savolga tutsang, maktabidan kech qoladi.

Ering jo'yali e'tirozi Muxtasar opada ko'tarilib kelayotgan vahimaga suv sepgandek bo'ldi, jim qoldi. Ko'z oldidan o'g'luga tegishli sochiq, choyshab, paypoq, dastro'mol... bir-bir o'ta boshladi: "Qaysi birining ko'k rangi Rahmonjonning qo'lida qoldi ekan?.."

Nonushtadan so'ng kundan kun bo'yi cho'zilayotgan, qaddi-basti tik o'g'lining orqasidan mehr ila termilib, "Yangi olib bergan shimim bolamga biram yarashibdi", sevinib qo'ydi ona.

Rahmonjon maktabdan kayfiyatsiz qaytdi. Onasining ertalabki vahimasi unga o'tgandek, go'yo.

– Aya, negadir qo'limdagi ko'karish ketmayapti. Sovunlab yuvib ko'rdim,

rosa artdim, yo'q bo'ladi-yu, birpas turib, yana avvalgi holiga qaytadi.

– Ertalab ko'nglim g'ash bo'lgandiy, tezda buning tagiga yetish kerak, – o'g'lining qo'llarini astoydil ko'zdan kechira boshladi Muxtasar opa. – Rostdan ham hech yering og'rimayaptimi?

– Yo'q, faqat charchayapman.

– Holim quriyapti, degin, – vahimaning uyasiga aylandi ona. – Siqilma, bolam, hozir dadangga qo'ng'iroq qilaman, do'xtirga olib boradi. O'zi qo'llaring keyingi paytlarda qishin-yozin terlaydigan bo'lib qolgandi. Qachon qarama muzdek, bunda bir gap bor. Nima bo'lgandayam, dardning oldini olgan yaxshi.

Tekshirishlar boshlanib ketdi. Qo'l, oyoq, bosh, o'pka, jigar, buyrak, oshqozon... Tibbiy apparatlar, turli tahlillar, bir-biridan tajribali shifokorlar... Ne ajabki, qo'li hamon ko'karib turganiga qaramay, yuragining biroz tez urayotganini hisobga olmaganda, yigitcha soppa-sog'.

– Tekshiruvlarda yuzaga chiqmagan bo'lsa-da, qo'l ichining ko'karishi yurak xastaligidan bo'lishi mumkin, – xulosa qildi shifokor. – Buni faqat jarrohlik orqali aniqlasa bo'ladi.

– Yuragini operatsiya qilasizlarmi? – hushi boshidan uchdi Muxtasar opaning. – Axir... axir, u juda yosh-ku!

– Ayasi, o'zingni qo'lga ol, hali hech narsa aniqlanmas, – xotininga dalda berdi Shakarbek aka. – Shunday bo'lgan taqdirda ham, yosh organizm har qanday kasalni yenga oladi. Bu vahimada o'g'ling qolib, o'zing kasal bo'lib qolasan.

Biroq xotininga tayanch bo'lib turgan oila boshlig'ining ahvoli ham ayolinikidan xoli emasdi. Ammo uning ruhan cho'kishga haqqi yo'q. Axir o'n yettiga kirgan o'g'lining salomatligi, demakki, kelajagi haqida so'z boryapti. U ota sifatida to'g'ri qaror chiqarishi lozim.

– Yurak xastaligi bilan hazillashib bo'lmaydi. Uni vaqtida bartaraf etish kerak. Siz shu sohaning malakali shifokorisiz, nima desangiz, shunga rioya qilamiz.

– Hammasi yaxshi bo'ladi, – ota-onaga dalda berdi shifokor. – O'g'lingizni operatsiya kunidan bir hafta avval shifoxonaga yotqizib, tahlil tekshiruvlari o'tkazamiz. Bu jarrohlikdan oldin bajarilishi shart bo'lgan amallar. Keyin operatsiya uchun...

Oilada notinchlik boshlandi. Uzun quloq eshitadi, deganlaridek, buvi-bobodan tortib, amma, xola, tog'a... hamma er-xotininga tayanch bo'lish uchun jam bo'lgan. Hammada har xil fikr:

– Yosh yigitni tig'ning tagiga yotqizgandan ko'ra, tabiblargayam bir ko'rsatish kerakmi...

– Tabiblaringiz nima ham qilardi, turli giyohlar bilan yurakni quvvatlantirishi mumkin. Jarrohlik butunlay boshqa narsa.

– To'g'ri, do'xtirlarning aytganini qilgan ma'qul.

– Ha-a, nima bo'lgandayam, er-xotininga qiyin. Bolaning dardida ikkisi ham aftodahol. Yonida tayanch bo'lishimiz kerak...

Nuriniso xola esa sanoqli kunlardan so'ng jarrohlik stoliga yotadigan nabirasini kuzatish bilan ovora. "Ranglari toza, harakatlari dadil, – ko'nglidan o'tkazdi

onaxon. – Qanday qilib yurak kasali bo'lishi mumkin? Qo'li terlab turar ekan. Qo'l jonvor doim shimining cho'ntagida bo'lganidan keyin terlaydi-da. Shu odati yomon ekan, urishib qo'ymasam bo'lmaydi".

– Rahmonjon, polvonim, yonimga o'tir, sen bilan bir gaplashay.

Telefonda qo'shiq eshitib turgan yigitcha istamaygina buvisining yonidan joy oldi.

– Nega ikkala qo'ling doim cho'ntagingda, bolam?

– Odatlanib qolganman-da, buvijon.

– Qo'ling ko'p terlaydimi?

– Ha.

– Havo sovuq bo'lgandayam, mayli edi. Shunday issiqda qo'l cho'ntakda bo'lgandan keyin terlaydi-da. Qani, kaftlaringni och, bir ko'ray.

Rahmonjon cho'ntagidan qo'lini chiqarib, buvisiga ko'rsatdi.

– Voy-bo', qo'llaring kechagidan ham ko'karib ketibdi-ku! – hayratda qoldi Nuriniso xola va bir narsa esiga tushgandek, – Shiming yangimi? – so'radi nabirasidan.

– Ha, ayam olib berdi, yarashibdimi, buvijon? – yigitcha o'rnidan turib, astoydil aylanib, buvisiga maqtandi. – Menga yoqqani uchun doim kiyib yuribman.

– Qani, cho'ntak astarini tashqariga chiqar-chi.

Rahmonjon shimining ko'm-ko'k astarini tashqariga chiqardi. "Qari bilganni pari bilmas", deganlaridek, yigitchaning "yurak xastaligi" sababi ayon bo'ldi...

Zulfiya YUNUSOVA,
«Vatanparvar»



Xorij armiyalarida



ҚАТАР

ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ

Маълумки, шу кунларда Қатарда футбол бўйича навбатдаги жаҳон чемпионати бўлиб ўтмоқда. Тарихда биринчи марта араб давлати мезбонлик қилаётган мазкур мусобақа сабабли бу давлатга бўлган қизиқиш анча ортган. Халқаро валюта жамғармаси томонидан дунёнинг энг бой давлати деб топилган Қатар амирлиги Яқин Шарқда, Форс кўрфази соҳилида жойлашган. Қизиғи шундаки, деярли 2,8 миллион кишидан иборат бўлган аҳолининг атиги 11 фоизга яқинини маҳаллий фуқаролар, қолган қисмини эса турли хориж мамлакатларидан келган муҳожирлар ташкил этади. Асосан давлат ҳисобига яшайдиган кам сонли маҳаллий фуқаролар ҳар қандай солиқлардан озод этилган. Нефть ва газ конларига бой давлат. Бу бойликлардан келадиган даромад Қатарни аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулот ҳажми бўйича дунёда биринчи ўринга олиб чиққан. Шу билан биргаликда, амирлик дунёдаги энг хавфсиз давлатлардан бири ҳисобланади (*БМТ маълумотларига кўра, бу борада 2-ўринда туради*).

Бевосита ҳарбий мавзуга ўтадиган бўлсак, 1971 йилда Буюк Британияга тобеликдан халос бўлиб, мустақилликка эришган Қатар ҳукумати амирлик ҳудуди мудофаасини таъминлаш, қирғоқ бўйи ҳудудлари ва чегарага туташ районларни ташқи агрессиядан ҳимоя қилиш, шунингдек, мамлакатнинг ўзида юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда ҳолат режимини таъминлашга мўлжалланган ўз Қуролли Кучларини ташкил этди. Жануби-ғарбий Осиёнинг Қатар яриморлида жойлашган мазкур мамлакат армияси Қуруқликдаги кўшинлар, Ҳарбий денгиз кучлари, Ҳарбий ҳаво кучлари ҳамда Ҳаво ҳужумидан мудофаа кўшинларидан ташкил топган.

Амирлик Қуролли Кучларининг умумий миқдори 16 500 нафар ҳарбий хизматчидан иборат бўлиб, улардан 12 000 нафари Қуруқликдаги кўшинларда, 2 000 киши Ҳарбий денгиз кучлари ва 2 500 киши Ҳарбий ҳаво кучлари ҳамда Ҳаво ҳужумидан мудофаа кўшинларида хизмат қилади. Мамлакат амираи Қуролли Кучлар Олий Бош қўмондони ҳисобланади, маъмурий бошқарув эса мудофаа масалалари бўйича давлат вазири томонидан Мудофаа вазирлиги ва Бош штаб орқали амалга оширилади.

Қуролли Кучлар 17 ёшга тўлган эркак фуқароларни кўнгилли асосда хизматга чақириш орқали бутланади. Хизмат муддати – 12 ой. Хорижий давлатлар фуқаролари Қатар армиясида фақат давлатлараро битимлар асосида махсус шартномалар бўйича хизмат қилишлари мумкин. Бундан ташқари, 2015 йилдан бошлаб мамлакатда мажбурий ҳарбий чақирув йўлга қўйилган (*йилига тахминан 2 минг киши*). Армия учун қўмондонлик кадрларини тайёрлаш НАТО мамлакатлари (*асосан АҚШ ва Буюк Британия*) ҳарбий таълим муассасаларида амалга оширилади. Мамлакат ҳарбий соҳада бир қатор хорижий давлатлар, биринчи навбатда АҚШ билан яқин ҳамкорлик алоқаларини ўрнатган. Хусусан, АҚШ Қуролли Кучларининг 4 та хорижий марказидан бири айнан Қатарда жойлашган.

Углеводород хомашёсини сотишдан олинadиган юқори даромад ҳукуматга армия ва флотни замонавий қурол-яроғ, жанговар техника ва кийим-бош билан таъминлаш муаммоларини муваффақиятли ҳал қилиш имконини беради. Бироқ Қуролли Кучлар ташкил этилган биринчи кунлардан оқ Мудофаа вазирлиги қисм ва бўлинмаларни маҳаллий аҳоли билан бутлаш муаммосига дуч келмоқда. Ҳозирда армиянинг умумий сонидagi маҳаллий аҳоли улуши атиги 30 фоизни ташкил этади.

Қуруқликдаги кўшинлар

Мамлакат Қуролли Кучлари асосини ташкил этувчи бу турдаги кўшинлар бронетанк бригадаси, амирлик гвардияси бригадаси, 3 та механизациялашган пйёдалар батальони, 2 та артиллерия батальони, амирлик гвардиясининг учта полки, зирҳли автомобиллар батальони, танкка қарши кураш олиб борувчи батарея, танк батальони, алоҳида командос батальони, зенит-ракета дивизиони ва 3 та махсус вазифани бажарувчи ротадан иборат. Қуруқликдаги кўшинлар асосан хориж давлатлари – АҚШ, Германия, Франция ва қисман Россияда ишлаб чиқарилган жанговар техника ва қурол-яроғлар билан таъминланган. Улар орасида «Леопард-2А7» ва АМХ-30S типидagi асосий жанговар танклар (*62 та*), оғир қуролли АМХ-10RC ва «Пирана-2» типидagi жанговар машиналар (*48 та*), «Фенек», V-150 «Чаймит» ва VBL русумли жанговар разведка машиналари (*56 та*) ва бошқа турли типдаги зирҳли транспортёрлар, бирваракайига ўт очувчи реактив тизимлар, ўзиюрар артиллерия қурилмалари, турли калибрли гаубицалар, танкка қарши ракета комплекслари, юк автомобиллари, алоқа ва разведка воситалари, миномётлар, гранатомётлар ва бошқа қуроллар бор.

Ҳарбий денгиз кучлари

Бу турдаги кўшинлар таркибидан қирғоқни қўриқлаш бўлинмалари, денгиз ва қирғоқ полицияси, қирғоқ бўйи артиллерияси жой олган. Асосий ҳарбий денгиз базаси Дохада, таянч пункти эса Халул оролида жойлашган.

Қирғоқ бўйи ҳудудларини назорат қилиш ва патруллик вазифаларини амалга ошириш, портлар, Форс кўрфазидаги газ ва нефть конларини ҳимоя қилиш Ҳарбий денгиз кучларининг асосий вазифаси ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, ҲДК тасарруфидаги жанговар техника ва қуролларнинг деярли 70 фоизи

Францияда ишлаб чиқарилган, шу сабабли улардан тўғри ва самарали фойдаланиш айнан шу мамлакат ҳарбий маслаҳатчилари томонидан таъминланади. Жанговар техника асосини «Дамен Поликат» 1450, DV 15, «Креститалия» MV-45, «Халма-тик» M-160 русумли патруль катерлари, «Дамсах» («Комбатанте-3»), «Барзан» («Вита») русумли ракета катерлари ташкил этади.

Ҳарбий ҳаво кучлари

1974 йилда шакллантирилган Ҳарбий ҳаво кучлари қирувчи-бомбардимончи, қирувчи, транспорт, вертолёт эскадрильялари ва зенит-ракета дивизионидан ташкил топган. Бу турдаги кўшинларнинг асосий қисми пойтахт Доха шаҳридан 50 км узоқликдаги Ал-Удэйл авиабазасида жойлашган. ҲХКнинг жанговар техника парки Франция ва АҚШда ишлаб чиқарилган «Мираж-2000ЕД», «Мираж-2000Д», «Рафаль-DQ» ва «Рафаль-EQ» типидagi тактик қирувчи (*35 та*), C-17A «Глоубмастер-3», C-130J-30 «Геркулес-2», A-340, B-707, B-727 ва «Фалкон-900» типидagi транспорт самолётлари (*18 та*), «Альфа-Жет» ва PC-21 типидagi ўқув самолётлари (*27 та*), AH-64E «Апач Гардиан» типидagi махсус зарбдор, «Коммандо» МКЗ, AW-139, SA-341 ва SA-342L «Газель» типидagi кўп мақсадли, «Коммандо-Мк2А» ва «Коммандо-Мк2С» типидagi транспорт вертолётлари, шунингдек, «Байрактар-ТВ2» типидagi учувчисиз учиш аппаратлари билан таъминланган. Уларни эҳтиёт қисмлари, ёрдамчи ва бошқа ускуналар билан таъминлаш АҚШнинг «Локхид Мартин» компанияси зиммасига юкланган, учувчилар ва техник ходимларни ўқитиш эса АҚШ ва Франциядаги ўқув марказлари базасида ташкил этилган.



Boks

YOSHLARIMIZ

DUNYO MIQYOSIDA

BIRINCHI!



Ispaniyada o'tkazilgan boks bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati umumjamoaa hisobida O'zbekiston yoshlar terma jamoasining g'olibligi bilan yakunlandi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Baxtiyor Asadov yoshlar o'rtasida jahon chempioni bo'ldi. Belarus poytaxtida esa kattalar o'rtasida xalqaro turnir bo'lib o'tdi va unda ham armiyamiz charm qo'lqop ustasi zafar qozondi.

Ispaniyaning La-Nusiya shahri mezbonlik qilgan yoshlar o'rtasidagi bu galgi jahon chempionati dunyoning 73 ta davlatidan 600 nafarga yaqin iqtidor egalarini o'zida jamladi. Ular safida mamlakatimizning 12 nafar o'g'il va 8 nafar bokschi qizi ham ringga ko'tarilib, g'oliblik uchun jang qildi.

Mutaxassislar e'tirof etishicha, kuchli tarbiyalanuvchilarga ega Rossiya va Belarus terma jamoalari mazkur jahon chempionatida ishtirok etmagan bo'lsa-da, ring va ring atrofida munosib raqobat yuzaga keldi, janglar esa yoshlikka xos shiddatli kechdi. Buni sovrinlar uchun asosiy janglar 73 qatnashchi mamlakatning yarmidan ko'pi, ya'ni 38 tasi vakillari o'rtasida borganidan ham bilib olish mumkin. Xususan, yurtimizning 8 nafar yosh iqtidor sohibi saralash bosqichi bahslarida faqat g'alaba qozonib, jahon chempionatining finaliga chiqqan bo'lsa, Hindistonning 7, Qozog'iston, Ukraina va Angliya davlatlarining 4 nafardan, Kuba va Germaniyaning 3, Meksika, Niderlandiya va Gruziyaning 2 nafardan, Yaponiya, AQSh, Filippin, Italiya, Serbiya, Armaniston va Niderlandiya kabi mamlakatlarning 1 nafardan bokschisi finalgacha muvaffaqiyatli yetib keldi. Yakunda 21 ta davlat vakili sovrindor bo'ldi.

Olim Muhamedov hamda Timur Axbayev murabbiyligidagi yosh bokschi jahon chempionatining final janglarida ham ishonchni oqlab, dunyo miqyosida tengsiz ekanliklarini isbotlashdi. O'zbekiston yoshlar terma jamoasi 5 ta oltin, 3 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoaa hisobida 1-o'rinni egalladi. Hamyurtlarimiz bu borada dunyoning eng kuchlilari sanalgan Hindiston (4 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza), Angliya (2 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza), Qozog'iston (2 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza), Ukraina (2 ta oltin, 2 ta kumush, bitta bronza), Kuba (2 ta oltin, bitta kumush, 3 ta bronza), Meksika (bittadan oltin, kumush va bronza), Niderlandiya (bittadan oltin va kumush), Irlandiya (bitta oltin, 5 ta bronza) va AQSh (bitta oltin, 3 ta bronza) yoshlar terma jamoalarini katta farq bilan ortda qoldirishdi.

Yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida shohsupaga ko'tarilganlar orasidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Baxtiyor Asadov ham o'rin oldi. -57 kg vazn toifasida ringga chiqqan MVSM vakili dastlab Irlandiya terma jamoasi

a'zosi Kolm Farrellni, chorak finalda marokashlik Sulaymon Samgulini mag'lub etdi. Baxtiyor yarim finalda AQSh vakili Chada Fippsdan 4:1 hisobida ustun keldi. U hal qiluvchi final jangini meksikalik Ezeqyel Kabreraga qarshi o'tkazdi. Qizg'in kechgan raqobatda hamyurtimiz g'olib chiqdi. Shu tariqa Baxtiyor Asadov boks bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempioni bo'ldi!

Jahon chempionatining g'olib va sovrindorlari:

-  **Oltin medal**
- 48 kg: Gulsevar G'aniyeva
- 57 kg: Baxtiyor Asadov
- 67 kg: Javohir Ummataliyev
- 71 kg: Fazliddin Erkinboyev
- 75 kg: To'rabek Habibullayev
-  **Kumush medal**
- 80 kg: Rahmatillo Boymatov
- 70 kg: Aziza Zokirova
- 81 kg: Oltinoy Sotimboyeva
-  **Bronza medal**
- 54 kg: Xo'janazar Nortoijiyev
- 75 kg: Sahobat Husanova

Ispaniyaning La-Nusiya shahrida 10 marta O'zbekiston bayrog'i yuksak ko'tarilib, 5 marta yurtimiz madhiyasi yangradi. Shu o'rinda eslatib o'tamiz, boks bo'yicha yoshlar o'rtasidagi 2021-yilgi jahon chempionati Polshada o'tkazilgan va unda vakillarimiz 3 ta oltin, bitta kumush va 6 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoaa hisobida 3-o'rinni egallagan edi. Hamyurtimiz Nigina O'ktamova esa qizlar o'rtasida jahon chempionligiga erishgan ilk bokschimiz bo'lgandi. Uning ushbu muvaffaqiyatini bu galgi dunyo birinchiligida Gulsevar G'aniyeva takrorladi. O'zbekiston yoshlar terma jamoasi esa umumjamoaa hisobida 1-o'ringa ko'tarildi. Bularning barchasi mamlakatimizda iste'dodli bokschi larni tayyorlash, saralash ishlari to'g'ri olib borilayotgani, yurtimizda Olimpiya va jahon chempionlarining munosib izdoshlari kamol topayotganligidan dalolat beradi.

Belarus poytaxti Minsk shahrida esa boks bo'yicha V.I. Livinsev xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi bokschi larning bir nechtasi sovrindorlar safidan joy oldi. Xususan, -48 kg vazn toifasida ringga chiqqan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining katta tajribaga ega charm qo'lqop ustasi Nodirjon Mirzaxmedov barcha raqiblarini mag'lub etib, mazkur xalqaro turnirda ham g'oliblikni tantana qildi.

SHOHSUPA

(xabarlar) 



KURASH


Hindistonning Puna shahrida 60 ga yaqin davlatning eng sara polvonlari ishtirokida milliy qadriyatimiz hisoblangan kurash bo'yicha XIII jahon chempionati o'tkazildi. Tarkibida Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham bo'lgan O'zbekiston terma jamoasi 7 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronza medal bilan umumjamoaa hisobida birinchi o'rinni egalladi. 2-o'rin 6 ta oltin, 4 tadan kumush va bronza medalni qo'lga kiritgan Eron, 3-o'rin bitta oltin, 2 tadan kumush va bronza medalga ega chiqqan Janubiy Koreya terma jamoasiga nasib etdi.




DZYUDO

Poytaxtimizdagi «Universal» sport saroyida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida MVSM vakili Shukurjon Aminova (-57 kg) o'z vazn toifasi bo'yicha bahslar yakunida g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. MVSM vakili Irisxon Qurbonboyeva (-78 kg) esa finalda Farangiz Xolmurodovga imkoniyatni boy berib, kumush medalga sazovor bo'ldi. +100 kg vazn toifasidagi polvonlar – Alisher Yusupov bilan Muhammadkarim Xurramov o'rtasidagi final bellashuvi juda qiziqarli kechdi. Unda Yusupov «vazari» bahosi bilan ustun keldi. Ushbu vazn toifasida bellashgan MVSM vakili Shohrux Baxtiyorov esa chempionatning bronza medalini bilan taqdirlandi. Armiyamiz dzyudochisi Muhriddin Tilovov (-60 kg) ham sovrindorlar safidan joy oldi.

SHAXMAT



Isroilda shaxmat bo'yicha dunyoning eng kuchli 12 ta terma jamoasi ishtirokida jahon chempionati bo'lib o'tdi. Eng yosh jamoa hisoblangan vakillarimiz saralash, chorak va yarim final bahslarida Ozarbayjon, Ukraina, Hindiston jamoalarini mag'lubiyatga uchratdi. Chempionlik uchun kechgan final bahsida shaxmatchilarimizga biroz omad yetishmadi va O'zbekiston terma jamoasi kumush medalga musharraf bo'ldi. Bronza medal Ispaniya, 4-o'rin uchun belgilangan sertifikat Hindiston terma jamoasiga taqdim etildi.



PROFESSIONAL BOKS

AQShning Kaliforniya shtati Karson shahrida tashkil etilgan professional boks oqshomida hamyurtimiz Bahodir Jalolov amerikalik Kyortis Xarperga qarshi ringga ko'tarildi. Xarper shu paytgacha 22 ta jang o'tkazgan va ularning 14 tasida g'alabaga erishgan (9 ta nokaut), 8 ta jangda imkoniyatni boy bergandi. Bahodir esa 11 ta jang o'tkazib, barchasida raqiblarini muddatidan oldin mag'lub etgandi. Bu galgi 10 raundga mo'ljallangan jang ham oxirigacha yetmadi. Bahodir 4-raundda Xarperni burchakka taqab borib, kuchli zarbalar berish orqali raqibini muvozanatdan chiqardi va bokschimiz yana texnik nokaut evaziga g'oliblikni tantana qildi.



TRAMPOLIN

Bolgariya poytaxti Sofiya shahrida trampolin bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati o'tkazildi. 11-12 yosh toifalarida kechgan batutda sinxron sakrash dasturida hamyurtlarimiz Firdavs Ibragimov hamda Sardor Muhammadiyev eng yuqori natija qayd etib, oltin medalga erishdi. Ushbu yosh toifasining akrobatik yo'lakcha dasturida esa hamyurtimiz Serdan Shodiyev g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi.

BOLAJON

QAYSAR QIZ

(ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, uch opa-singil bo'lgan ekan. Kattasining ismi Zebo, o'rtanchasi Sevinch, kenjatoyi Zahro ekan. Zahro juda dangasa bo'lib, faqat o'zini o'ylar, onasiga yordam bermas ekan. So'zlari qo'polligi sabab opalari va yon-atrofdagilarni xafa qilarkan. Shuning uchun uning dugonalari yo'q ekan.

U bir kuni ko'chada tursa, yo'lda ketayotgan keksa kampirning qo'lidan hassasi tushib ketibdi.

– Hassamni olib ber, qizim, – debdi u Zahroga.

Zahro kampirning gapini eshitmaslikka olibdi. Nuroni ayol yana undan iltimos qilibdi:

– Bolam, hassamni olib ber, keksaligim uchun pastga enkaya olmayman, belim og'riydi.

Zahro uning gapiga parvo qilmay, gerdayib

turaveribdi. Aslida kampir sehrgar ekan. U qizning beodob va dangasaligidan jahli chiqib:

– Sen barchaga mehribon bo'lib, atrofdagilarga yordam bermaguningcha, shu yoshingda qolib ketasan. Hech kim senga mehr bermaydi, yaxshi ko'rmaydi, – deb duoibad qilibdi va ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Oradan bir necha yil o'tibdi. Zahroga xuddi o'zi kabi hech kim mehr ko'rsatmas, e'tibor qilmas ekan. Hatto onasi ham undan xafa ekan. Tengqurlari ulg'ayib borar, u esa katta bo'lmas emish. Shunda sehrgar kampirning gapi xayolidan o'tibdi. Uning hassasini olib bermaganiga afsus qilibdi. Bu haqda onasiga gapirib beribdi. “Endi hammaga mehribon, shirinso'z bo'laman, sizning ham barcha aytganlaringizni bajaraman, aslo o'jarlik va o'zboshimchalik qilmayman, – deb onasiga va'da beribdi. – Hammaning mehrini qozongach, albatta, sehrgar kampirni izlab topaman va sehردan xalos bo'laman!” debdi.

Zahro aytganini qilib o'zgaribdi va onasidan sehrgar momoni izlab topishga ruxsat so'rabdi.

– Qizim, hali yosh bo'lsang, kampirni qayerdan topishni bilmasang, yolg'iz o'zingni qayerga yuboraman?

– Bilmadim, onajon, – ko'ziga yosh to'libdi Zahroning.


Shunda kutilmaganda ularning oldida sehrgar kampir paydo bo'libdi. Zahro unga darhol salom beribdi va kechirim so'rabdi.

– Barakalla, qizim, sen o'zgarding. Endi sehردan xalossan...

Opa-singillar onalari bilan birga uzoq va baxtli umr kechirishibdi.

Shodiya YUSUPJONOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
241-umumta'lim maktabining
4-sinf o'quvchisi

LABIRINT



Bilasizmi?

T A'M, UZ VA KO'Z HAQIDA

HAYVONLAR TA'M SEZGISIGA EGAMI?

Odamning ta'm sezishi behisob lazzat manbayidir. Ammo bu sezgi bizga faqat yoqimli tuyg'ular uchungina emas, balki himoya vositasi sifatida ham berilgan. U ko'pincha inson organizmi uchun zararli taomni iste'mol qilishdan saqlaydi.

Ta'm bilish sezgisining o'zi nima? Bu molekular to'qnashuvini sezishdir. Ya'ni harakatlanuvchi zarrachalar ta'm nervlarini qo'zg'aydi va bu holat bilan ta'm sifatida idrok etiluvchi signal qabul qilinadi. Molekulalarni tezroq harakatlanishga majbur qiladigan hamma narsa ta'mni kuchaytiradi. Shuning uchun ham issiq narsa sovuq narsaga nisbatan tezroq his qilinadi. Odam o'rtamiyona degustatordir. Unda atigi

3 mingta ta'm sezish o'simtasi bor xolos. Baliqlarni to'dasi bilan hatto chaynamay yutadigan kitda ular bir nechta yoki umuman yo'q. Cho'chqada 5 500 ta, sigirda 35 000, antilopada 50 000 dan ortiqroq ta'm sezish nuqtasi bor. Ba'zi dengiz hayvonlarida ta'm sezish o'simtalari ularning sirtida. Masalan, baliqlar butun tana sirti bilan sezadi. Pashsha va kapalak kabi mavjudotlar ta'mni oyoqchalari bilan "tatib" ko'radi. Ilon va kaltakesaklar tilidan foydalansada, farqi bor. Ular til uchini yemishga zudlik bilan tekizib, mayda zarralarini ilib oladi. Bu zarralar til uchi yordamida og'izning yuqori qismidagi maxsus a'zoga yetkaziladi. Bu jonzorlar shu orqali yemish ta'mi va hidini tatib ko'radi.

NEGA HAYVONLAR TUZNI YAXSHI KO'RADI?

Odamlarning ham, hayvonlarning ham tuzli ovqatga, oziqqa o'chligi jonli tabiatning eng ajib sir-sinoatlaridandir. Tuz zaxiralari Yer yuzida quyidagicha

taqsimlangan, uning katta miqdori okean suvida, quruqlikdagi zaxirasi nisbatan kam. O'simliklar tarkibidagi tuz arzimagan miqdorda bo'ladi. Tuproqdagi tuzlarni yomg'ir suvlari yuvib, avval daryoga, so'ng dengiz va okeanlarga eltadi. Quruqlikda yashovchi hayvonlar qachonlardir dengiz hayvonlaridan tarqalgan, degan qarashlar bor. Ular tanasidagi suv aynan dengiz suviga o'xshash. O'simliklar ham, tuproq ham hayvonlarni yetarli miqdordagi tuz bilan ta'minlay olmaydi, shu bois ular har qanday tuzli oziqqa ochko'zlik bilan tashlanadi. Faqat yirtqich hayvonlar, ya'ni boshqa hayvonlarni tutib yeydiganlar tuzga ortiqcha ehtiyoj sezmaydi: ular tuz bilan o'z qurbonlari go'shti evaziga ta'minlanadi. O'txo'r hayvonlarning aksariyati esa, aksincha, tuzni juda xush ko'radi.

HAYVONLAR DUNYONI QANDAY KO'RADI?

"Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi", degan maqol faqat insongagina qaratilgan emas. U ko'rishning ko'pgina tirik mavjudotlar uchun beqiyos ahamiyatga molik ekanligini ifoda etadi. Shuning uchun hatto ko'zga ega bo'lmaganlar ham qandaydir "ko'ruvchi" organlarga ega. Masalan: yomg'ir chuvalchaglari terisining ustida ko'rish hujayralari betartib joylashgan bo'lib, ularni mikroskop vositasidagina ko'rish mumkin. Bunday "ko'zlar" bilan atrofdagi narsalarni ko'rib bo'lmaydi, ammo ular orqali quyoshni soyadan, kunni tundan, yorug'ni qorong'idan farqlash oson, chuvalchang uchun bundan ortig'i kerak emas, zuluklarda ko'rish hujayralari tanasining oxirida to'plangan, demak, uning "ko'zlari" dumida joylashgan, dengiz yulduzida esa bunday hujayralar "qo'llar" deb atalmish a'zolarida jamlangan.

QANDAY HAYVONLAR RANGNI FARQLAY OLADI?

Olimlar bu savolga javob topish maqsadida ko'plab tajribalar o'tkazganlar. Bu tajribalarga ko'ra, ayrim hayvonlar ranglarni farqlay olmaydi, deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin. Masalan, asalari qizil rangni qora rangda ko'radi. Akula rangni umuman farqlamaydi. Boshqa baliqlar ayrim ranglarni ajrata oladi. Aytaylik, cho'rtanbaliq har xil ranglar shu'lasini turlicha farqlaydi. Agar akvariumda tasodifan kamalak ranglari paydo bo'lsa, baliqchalar yashil va sariq ranglar tomon suzadi. Kalamush, sarg'ish va ko'k ranglarni farqlay olmaydi, mushuk oltita rangni, ot esa atigi to'rtta rangni farqlar ekan. Maymun odam kabi barcha ranglarni farqlaydi. Tajribalarga ko'ra, tovuqlar kamalakning hamma ranglarini ko'rish, it esa ranglarning farqiga bormasligi aniqlangan. Sut emizuvchilarning aksariyati ranglarni farqlamaydi.

Muattar MELIYEVA tayyorladi.

OBUNA - 2023


«Vatanparvar» gazetasi nashr ko'rsatkichi – 114
«O'zbekiston armiyasi» jurnali nashr ko'rsatkichi – 1 273

– Men «Vatanparvar»ni tanladim. Siz-chi?



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

<p>VATANPARVAR</p> <p>MUASSIS</p> <p></p> <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p>www.mudofaa.uz</p>	<p>Tahririyat kengashi: polkovnik Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov</p> <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.</p>	<p>Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi: podpolkovnik To'liq Jumanazarov</p> <p>ISSN 2010-5541</p> <p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Telefonlar: kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29</p>	<p>Navbatchi: leytenant Dilshod Ro'ziqulov Sahifalovchi: Begali Eshonqulov Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva</p> <p>Buyurtma: G-1205 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 29 420 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>	<p>Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.</p> <p>Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda.</p> <p>"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.</p> <p>1 2 3 4 5 6</p> <p>Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.</p>
---	---	---	--	--